

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТЫ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri



YANGI AVLOD

OFITSERLARI XIZMATGA SHAY



BIR LAHZANING QIYMATI

Ba'zan inson taqdirini uzoq o'ylangan
rejalar emas, balki bir lahzada qabul
qilingan qat'iy qaror o'zgartirib yuboradi.
Ayrim lahzalar shunchalik qimmatliki, ularni
boy berish hayotni boy berish bilan barobar.



ENERGETIKADA MUAMMO MABLAG'DA EMAS

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tgan videoselektor yig'ilishida energetika sohasidagi dolzarb muammolar va ustuvor vazifalar muhokama qilindi. Davlat rahbari so'nggi o'n yilda mamlakatning ichki ehtiyojini qoplaydigan generatsiya quvvatlari yaratilganini ta'kidlar ekan, bugungi asosiy muammo mablag' emas, balki boshqaruv, nazorat va ijro intizomida ekanini qayd etdi. Yig'ilishda podstantsiya va transformatorlardagi avariylar, energiya iste'moli hisobining samarasizligi, suyultirilgan gaz ta'minotidagi kamchiliklar hamda tizimni raqamlashtirish zaruratiga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, yangi energetika loyihalari uchun malakali kadrlar tayyorlash, ta'limni amaliyot bilan uyg'unlashtirish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI 41 MILLIARD DOLLARIGA YETDI

2026-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 41 milliard AQSH dollariga yetdi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,4 foizga ko'pdir. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, eksport 15,9 milliard dollar, import esa 25,1 milliard dollarni tashkil etdi. E'tiborli jihati, oltin hisobga olinmagan holda tovarlar eksporti 8,2 milliard dollarga yetib, bir yil ichida 28,7 foizga o'sgan. Hisobot davomida O'zbekiston dunyoning 195 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirgan bo'lib, eng yirik hamkorlar Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va Afg'oniston bo'lib qolmoqda.

Islohotlar amalda

INSON QADRI VA XALQARO STANDARTLAR USTUVOR MAJMUA



Mamlakatimizda jazoni ijro etish tizimini tubdan isloh qilish, ushbu sohada inson huquq va erkinliklarini ishonchli ta'minlash borasidagi islohotlar jarayonida sohaga xalqaro standartlarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti tasarrufidagi Markaziy tergov hibsxona-sida yangi va zamonaviy tartibot binosi foydalanishga topshirildi.

Tadbirida Ichki ishlar vaziri general-leytenant A.Tashpulatov hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari, jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Dastlab muassasada yaratilgan imkoniyatlar bilan

yaqindan tanishilib, mazkur muassasa inson qadrini ulug'lash va xalqaro huquq normalariga mos holda faoliyat yuritish yo'lidagi muhim qadamlardan biri ekani ta'kidlandi.

Markaziy tergov hibsxonasida yaratilgan shart-sharoitlar, xavfsizlik chorolari va huquqiy kafolatlar bu maskanda sud hukmi chiqqunga qadar tergov ostidagi shaxslarni qonunchilik talablari asosida saqlashga xizmat qiladi.



Himoya huquqini ta'minlash va tergov jarayonlarini tezlashtirish maqsadida, majmuada advokatlar xonolari ko'paytirilib, ularning soni 50 taga yetkazildi. Tergov xonolari esa, 6 tadan 25 taga oshirildi.

Yangi hibsxona faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalari va innovatsion yechimlar asosida, hibsxonada saqlanayotgan shaxslarning yaqin qarindoshlari bilan qisqa muddatli uchrashuv xonolari soni 14 tadan 36 taga yetkazilib, ortiqcha tirbandlik va kutishlarga chek qo'yildi.

«E-Mahkum» axborot platformasi hamda «Qal'a» intellektual monitoring platformasi yagona tizimga birlashtirilib, 25 ta tashkilot bilan axborot almashinuvi yo'lga qo'yildi hamda sud va tergov organlari bilan yozishmalar to'liq elektron shaklga o'tkazildi.

Muassasaning nazorat o'tkazish tizimi to'liq avtomatlashtirilib, fuqarolar, xodimlar va advokatlar uchun alohida kirish-chiqish yo'laklari tashkil etilishi oqibatida sun'iy navbatlar muammosi hal etildi.

Shuningdek, tashrif davomida ishtirokchilarga muassasa hududida tashkil etilgan sayilgoh, mahkumlar ehtiyojlari uchun joriy qilingan «Raqamli do'kon», «M-billing» hamda «Videouchrashuv» tizimlarining ishlash mexanizmi haqida ham batafsil ma'lumot berildi.

Yangi Markaziy tergov hibsxonasi jazoni ijro etish tizimini yanada takomillashtirish yo'lidagi muhim qadamdir.

Feruz YO'LDOSHOV,
o'z muxbirimiz.

Ibrat

EHTIROM VA E'TIROF

Ichki ishlar organlarida faxriylarni e'zozlash, ularning ko'p yillik fidokorona mehnati va boy hayotiy tajribasini qadrlash ezgu an'anaga aylangan. Ichki ishlar vazirligi tizimida uzoq yillar fidokorona mehnat qilgan, Faxriylar kengashi raisi, iste'fodagi general-mayor Erkin Norgitovning muborak 80 yoshga to'lishi munosabati bilan o'tkazilgan tadbir ana shu qadriyatlarining yana bir yorqin ifodasi bo'ldi.



Tadbirida so'z olgan Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov umrini Vatan va xalq xizmatiga bag'ishlagan, ko'plab shogirdlar yetishtirgan iste'fodagi general-mayor Erkin Norgitovni qutlab, ustozning avlodlarga ibrat bo'ladigan sharaflari hayot va xizmat yo'liga to'xtaldi.

Ichki ishlar vaziri maslahatchisi, general-polkovnik Zokirjon Almatov Erkin Norgitovning oddiy xodimlikdan rahbarlik lavozimlarigacha bo'lgan mas'uliyatli xizmat yo'lini alohida e'tirof etib, IIV Faxriylar kengashi raisi sifatida yosh xodimlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdagi xizmatlarini yuqori baholadi.

Bugungi kunda ichki ishlar organlarining 96 ming nafardan ziyod faxriysi o'zining boy tajribasini yosh avlodga o'rgatib, ularni xizmat burchiga sadoqat ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Tadbirida Erkin Norgitovning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan hujjatli film namoyish etildi.

Tantanali tadbir davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga muvofiq taqdirlangan, burchga sadoqat va kasbga fidoyilik namunasini ko'rsatayotgan yosh xodimlardan biri – Toshkent shahar IIBB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar batalyoni katta mutaxassis-mergani, serjant Dilshodbek Yuldashevga «Mard o'g'lon» davlat mukofoti topshirildi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.



Reportaj

YANGI AVLOD OFITSERLARI XIZMATGA SHAY

Mamlakatimizda Davlatimiz rahbari tomonidan inson qadri-ni ulug'lash, qonun ustuvorligini ta'minlash borasida belgilab berilgan vazifalar ijrosi doirasida huquqni muhofaza qilish tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ayniqsa, ichki ishlar organlarini zamonaviy bilim va kasbiy ko'nikmalarga ega, Vatan va xalq manfaatlariga sadoqatli ofitserlar bilan ta'minlashga ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bitiruvchilariga dastlabki maxsus unvonlarni topshirish va qasamyod qilish marosimi ana shunday tizimli islohotlarning yaq-qol amaliy natijasi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov yoshlarni unutilmas kun bilan qutlab, ularning kelgusi faoliyatida muvaffaqiyatlar tiladi. Tadbirida kadrlar tayyorlash tizimida amalga oshirilgan islohotlar, ta'lim jarayonining zamonaviy xalqaro standartlar hamda milliy amaliyot talablari asosida takomillashtirilgani, shuningdek, nazariya va amaliyot uyg'unligi o'z samarasini berayotgani alohida ta'kidlandi.

Eng hayajonli va unutilmas lahzalardan biri Akademiyaning «Tergov faoliyati» yo'nalishini muvaffaqiyatli tamomlagan 147 nafar bitiruvchiga «leytenant» maxsus unvonining tantanali ravishda topshiri-

lishi bo'ldi. Ta'kidlanganidek, mazkur unvon shunchaki xizmat darajasi emas, balki davlat va xalqning yosh kadrlarga bo'lgan yuksak ishonchi, qonunga va Vatanga sadoqat hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilish yo'lidagi ulkan mas'uliyat timsolidir.

Marosimda so'z olgan yosh ofitser, leytenant Feruza Boboxonovaning onasi Zilola Umarova o'z dil so'zlarini izhor etar ekan, ko'zida quvonch, qalbida cheksiz iftixor bilan shunday dedi:

– Bugun farzandimning yelkasida leytenantlik pogonlarini ko'rib, qalbim cheksiz faxr-iftixorga to'ldi. Farzandimning huquq va adolat posboni bo'lib yetishgani – oilamiz uchun eng katta baxt. Ishonchim komilki, farzandim o'z qasamyodiga sodiq qolib, xalqimizga vijdonan xizmat qiladi.

O'z navbatida, Akademiya bitiruvchilari nomidan leytenant Xurshidbek G'aniyev ham hayajonli minnatdorlik so'zlarini bildirdi:

– Bugungi kun – hayotimizning eng mas'uliyatli va sharaflil bosqichining boshlanishi. Yaqinlarimiz, ustozlarimizning ishonch to'la nigohlarini ko'rib, yelkamizdagi mas'uliyat qay darajada salmoqli ekanini chuqur his etmoqdamiz. Ustozlarimiz bergan saboq, vatanparvarlik tuyg'usi va adolat mezonlari biz uchun butun umrlik das-turilamal bo'lib xizmat qiladi.

Tantanali marosim yakunida bitiruvchilar ichki ishlar organlari safiga qabul qilingani munosabati bilan samimiy tabriklanib, ularga xalq va Vatan manfaatlariga sadoqat bilan xizmat qilish, yuksak ishonchni oqlashda muvaffaqiyatlar tilandi. Endilikda, Ichki ishlar organlarining tergov tizimi safiga qo'shilgan yangi avlod ofitserlari yurtimizda qonun ustuvorligi, jamoat xavfsizligi va xalq osoyishtaligini ta'minlash yo'lida munosib xizmat qiladi.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta serjant.
Hikmatilla ALIMJONOV
olgan suratlar.

HUDUDLARDAN LAVHALAR

Oliy Majlis Senatida “30-iyul – Butunjahon odam savdosiga qarshi kurashish kuni”ga bag'ishlangan “O'zgarib borayotgan dunyoda odam savdosiga qarshi kurashish: profilaktika, himoya va hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi



“Xavfsiz va sog'lom yurt” oyligi tadbirlarida cho'l hududlarida ishonchli xizmat tashkil etilmoqda.



“Xavfsiz va sog'lom yurt” keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirlari doirasida Qashqadaryo viloyati IIB xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirida soxta hujjatlar tayyorlab, bank kreditlarini qo'lga kiritishga uringan firibgarining harakatlariga chek qo'yildi.



Hafta qahramoni

BIR LAHZANING QIYMATI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Joriy yilning 26-iyul kuni er-talab soat 08-45 lar Toshkent shahri «Bunyodkor» ko'chasida avtomashinalar tirband. Mashinalar oqimi ichida harakatlanayotgan «Matiz» rusumli avtoulov haydovchisi YPX avtomobilini ko'rib, umid bilan yordam so'radi. Haydovchining ovoqidagi titroq va nigohidagi vahima ta'siri so'zdan-da kuchliroq edi. Mashina salonida

og'ir ahvolda bo'lgan bemor qizaloqni zudlik bilan shahar markazidagi 16-sonli shifoxonaga yetkazish zarur ekan.

Toshkent shahar Chilonzor tumani bo'yicha IIOFMB YPX otryadi birinchi safarbar guruhi komandiri, katta leytenant Muxiddin Ulashov har daqiqaga g'animat ekanligini aynan shu lahzada his etdi. Xizmat avtomobilidagi maxsus tovush va yorug'lik ishoralarini yoqildi. Si-

rena sadosini eshitgan haydovchilar birin-ketin yo'l ochdi. Hech kim bir-birini tanimasa-da, barchani mitti qizaloqning hayotini saqlab qolish savobli amal birlashtirdi. Qizaloq qisqa fursatda shifoxonaga yetkazilib, tez tibbiy yordam o'z vaqtida ko'rsatildi.

Qizaloqning otasi voqea tasvirlari saqlanib qolingan videoregistrator yozuvini ijtimoiy tarmoq sahifalariga joy-

lashtirib, YPX xodimiga samimiy minnatdorlik bildirdi. Videotasvirni tomosha qilgan minglab yurtodoshlarimiz bir norasi-daning hayotini saqlab qolish uchun bir lahzada to'g'ri qaror qabul qilib, xizmat burchini sidqidildan bajargan xodimni olqishladilar.

Bir qarashda oddiy tuyulgan bu xabar ortida ota-onaning so'nmgan umidi, yaqinlari-ni cheksiz shukronasi va bir

xodimning fidokorona xizmati mujassam. Aslida qahramonlik har doim ham jang maydonlarida ko'rsatilmaydi. Ba'zan u tirband ko'chaning o'rtasida, sirena sadolari ostida, bir lahzada qabul qilingan qat'iy qarorda bir insonning hayotini saqlab qolishda ham namoyon bo'ladi.

Dilrabo ABDUHAMIDOVA,
mutaxassis-muxbir,
katta leytenant.



«Ma'naviyat va komplayens» oyligi

**HALOLLIK VA SHAFFOFLIK –
USTUVOR MEZON**

«Komplayens va ma'naviy madaniyat oyligi» doirasida Xorazm viloyati IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati tomonidan shahar va tuman IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati shaxsiy tarkibi ishtirokida navbatdagi ma'naviy-ma'rifiy uchrashuv o'tkazildi. Tadbir davomida korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekani alohida ta'kidlandi. Xususan, xizmat faoliyatida halollik va shaffoflik tamoyillariga so'zsiz amal qilish, xodimlarning xizmat odobi hamda kasbiy etika me'yorlariga qat'iy rioya etishi zarurligi atroflicha muhokama qilindi.

Shuningdek, Qo'riqlash xizmati tizimida amalga oshirilayotgan komplayens nazorati, xizmat intizomi va ma'naviy-ma'rifiy ishlar tanqidiy-tahliliy ruhda ko'rib chiqildi. Xizmat faoliyati davomida yo'l qo'yilishi mumkin



bo'lgan kamchilik va xatolarning kelib chiqish sabablari chuqur tahlil qilinib, ularning oldini olish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish hamda qonunchilik talablariga

so'zsiz amal qilish yuzasidan tegishli topshiriq va tavsiyalar berildi.

Yig'ilishda xodimlar o'rtasida sog'lom ma'naviy-ruhiy muhitni mustahkamlash, xizmat burchiga sidqidildan yondashish, fuqarolar bilan muomala madaniyatini yuksaltirish,



xizmat odobi va kasbiy etika qoidalariga og'ishmay rioya etish har bir xodimning asosiy vazifasi ekani alohida ta'kidlandi. Shuningdek, xizmat faoliyatida uchrayotgan ayrim kamchiliklar tanqidiy ko'rib chiqilib, ularni bartaraf etish, xizmat samaradorligini oshirish hamda qonuniylik va intizomni yanada mustahkamlash yuzasidan aniq vazifalar belgilab olindi. Tadbir yakunida ishtirokchilarni qiziqtirgan savollarga batafsil javob berilib, bildirilgan taklif va mulohazalar tinglandi.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

«Xavfsiz va sog'lom yurt»

**SALMOQLI
NATIJALAR**

«Xavfsiz va sog'lom yurt» tezkor-profilaktik tadbirlari oyligi doirasida Buxoro viloyati hududida jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat xavfsizligini ta'minlash hamda huquqbuzarliklarning oldini olish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

Oylik davomida 4380 ta tezkor-qidiruv tadbiri o'tkazilib, ilgari ochilmay qolgan 177 ta jinoyat fosh etildi. Qidiruvda bo'lgan 28 nafar shaxs ushlandi, bedarak yo'qolgan 25 nafar fuqaro topilib, o'z oilalari bag'riga qaytarildi.

Giyohvandlikka qarshi kurashish yo'nalishida 126 ta jinoyat aniqlandi. Natijada 3 kilogrammdan ortiq giyohvandlik va 24 mingdan ziyod psixotrop dori vositalari hamda 146 tup giyohvandlik o'simligi noqonuniy muomaladan olib qo'yildi. Shuningdek, terrorizmga qarshi kurashish yo'nalishida 197 ta, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida 1037 ta holat aniqlanib, qonuniy choralar ko'rildi. Jamoat joylarida sovuq qurol yoki sovuq qurol sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan buyumlarni ochiq holda olib yurish bilan bog'liq 16 ta huquqbuzarlikka chek qo'yildi.

Raqamli makon xavfsizligini ta'minlash yo'nalishida 32 ta jinoyat fosh etildi, 12 ta jinoyat aniqlandi.

Buxoro viloyati.

**NOQONUNIY HOLATLARGA
CHEK QO'YILDI**

Qashqadaryo viloyatida o'tkazilayotgan «Xavfsiz va sog'lom yurt» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirlari davomida ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan bir qator jinoyat va huquqbuzarliklar fosh etilmoqda.



Viloyat IIB Tezkor-qidiruv xizmati xodimlari tomonidan Qarshi shahrining «Qarliqbog'ot» mahallasi hududida o'tkazilgan tezkor tadbir davomida «Labo» rusumli avtomashina to'xtatilib tekshirildi. Natijada haydovchi R.O. 11 ta gugurt qutisi hamda 2 ta qog'oz bo'lagiga joylangan, jami og'irligi 70 grammni tashkil etuvchi mariyuana giyohvandlik vositasini saqlab kelayotgani aniqlandi. Giyohvandlik vositalari aшыoviy dalil sifatida rasmiylashtirib olindi.

Shuningdek, viloyat IIB va Kasbi tumani IIB xodimlari hamkorligida o'tkazilgan yana bir tezkor tadbirda fuqaro S.A. og'ilxonasi o'rni-

da xo'roz urushtirish uchun maxsus maydon ajratib, qimorxona tashkil etgani ma'lum bo'ldi.

Tadbir jarayonida noqonuniy o'yinda 16 kishi ishtirok etayotgani aniqlandi. Voqea joyidan cho'tal sifatida olingan 1 million 450 ming so'm naqd pul, o'yin vaqtini belgilovchi elektron soat va xo'rozlarning vaznini o'lchashga mo'ljalangan elektron tarozi xolis guvohlar ishtirokida protsessual tartibda olindi.

Hozirda har ikkala holat yuzasidan tergovga qadar tekshiruv harakatlari olib borilmoqda.

Qashqadaryo viloyati.

**MIROBODDA
PASPORT NAZORATI**

Respublikamiz miqyosida e'lon qilingan «Xavfsiz va sog'lom yurt» keng qamrovli tezkor profilaktik tadbirlarning ikkinchi bosqichida



Toshkent shahri Mirobod tumani IIO FMB Migratsiya va personallashtirish bo'limi xodimlari tomonidan hududda joylashgan mehmonxonalar, korxona va tashkilotlar, qurilish obyektlari hamda sanoat zonalarida pasport-viza qoidalariga rioya etilish talablari tekshirilib, fuqarolarni turarjoylari bo'yicha vaqtinchalik hamda doimiy ro'yxatga olish yuzasidan zarur choralar ko'rilmogda.

Mazkur tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad – huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, mahallalarda sog'lom muhitni yaratish, aholining davlat organlariga bo'lgan ishonchini yanada oshirish hamda har bir fuqaro uchun osoyishta va xavfsiz yashash sharoitini ta'minlashdan iborat.

Toshkent shahri.



МАРДЛАР ЖАСОРАТИ МАНГУДИР

Муқаддас юртимиз, бағрикенг халқимизга садоқат билан хизмат қилиш барчамизнинг энг шарафли бурчимиздир!

Шавкат МИРЗИЁЕВ

«Hurriyat» газетасининг 2026 йил 8 июлдаги сониди чоп этилган таниқли публицист Муҳаббат Ҳамидова қаламига мансуб «Қизғалдоқлар йиғиси» номли эссени ўқиб, беихтиёр мустақилликнинг дастлабки йилларида мамлакатимизнинг турли гўшаларида содир этилган хунрезликлар ва мудҳиш воқеалар кўз олдимиздан ўтди.

Истиқлолимизни кўролмаган, эл-юртимиз оромини, тинчлик-осойишталигини бузиш ҳаракатида бўлган ғаламисларга қарши олиб борилган аёвсиз курашлар беихтиёр ёдимизга тушди. Муқаддас китобларда ва улуг мутафаккирларнинг асарларида Ватан доимо улуғлаб келинган. Ҳадиси шарифлардан бирида «Ватанни севиш иймондандир», дейилган. Узоқ ва яқин тарихга назар ташласак, чин инсонлар она юртини ёвуз душманлардан ҳимоя қилишни, халқ тинчлиги ва осойишталигини асрашни ўзларининг муқаддас бурчи деб билганликларида гувоҳ бўламиз. Мард ўғлонлар юрт тинчлиги, эл осойишталиги йўлида, керак бўлса, жонларини фидо этишган.

Муҳаббат Ҳамидова ўз кечинмаларида мустақиллигимизни ёвуз кимсалардан ҳимоя қилиш йўлида жасорат кўрсатиб, қаҳрамонларча ҳалок бўлган ана шундай мард ўғлонларимиздан бири – Баҳром Жўраевни ёдга олган. Унинг ҳарбий офицер бўлиш иштиёқида Тошкент олий умумқўшин кўмондонлик билим юртига ўқишга кирганини қайд этади. Қаҳрамоннинг оилапарварлиги, ота-онасига меҳри ва ҳурмати бўлакча бўлгани ҳақида сўз юритади. Муаллиф Баҳром Жўраевнинг бир қанча ҳарбий хизматчилар ва ички ишлар органлари ходимлари қатори Сурхондарё вилоятининг Сариосиё туманига суқилиб кирган террорчиларга қарши курашда мардона иштирок этганига алоҳида урғу беради.

Инсоннинг мардлиги, жасорати ва қаҳрамонлиги фақат жанг майдонларида эмас, балки жиноятчилар билан юзма-юз келганда ҳам намоён бўлади. Ҳарбий хизматчилар ва ички ишлар органлари ходимларининг мамлакатимиз сарҳадларини муҳофаза қилиш, жиноятчиликнинг олдини олиш ва унга қарши

курашиш борасидаги кундалик хизмат фаолияти хавф-хатардан холи эмаслиги кўпчиликка маълум. Ўз ҳаётини юрт тинчлигини, эл осойишталигини таъминлашга бағишлаган юзлаб ходимларимиз ушбу шарафли йўлда азиз жонларини қурбон қилишган.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев: «Истиқлол йилларида Ўзбекистон Республикасини, халқимизнинг тинч ва осойишта ҳаётини ҳимоя қилиш йўлида ҳалок бўлган мард ва жасур ўғлонларимизнинг азиз хотирасига эҳтиром кўрсатиш барчамиз учун ҳам фарз, ҳам қарзидир», дея алоҳида таъкидлаган эди. Бугунги кунда қасамёдига содиқ қолиб, хизмат бурчини адо этиш чоғида мардларча ҳалок бўлган ҳарбий хизматчилар ва ички ишлар органлари ходимла-

мустақиллигимизни, тинч-осуда ҳаётимизни, тараққиётимизни кўра олмайдиган бир гуруҳ ёвуз ниятли манфур кимсалар гаровга олинган одамларни ўзларига қалқон қилиб, блок-постга яқинлашишган. Шундай қалтис вазиятда ҳам капитан Баҳром Жўраев ва унинг сафдошлари ўзларини йўқотмади, аксинча, уларга тик қараб: «Тинч йўл билан қуроолларни топширинг. Гаровдагиларни қўйиб юборинг», — дея талаб қилдилар.

Афсуски, ваҳший бузғунчилар номардлик қилиб, биринчи бўлиб Баҳром Жўраев ва бошқа осойишталик посбонларига қарата ўқ ёмғирини ёғдирди. Шундан сўнг юз берган тўқнашув оқибатида бир неча ҳарбий хизматчи ва ички ишлар органлари ходими қаҳрамонларча ҳалок бўлди. Ҳали ўттиз ёшга ҳам кириб улгурмаган Баҳром Жўраев ҳамда унинг сафдошлари яшашга ҳақли эдилар. Уларнинг ҳам қанчалаб орзу-ҳаваслари бор эди.

Нетонгки, ҳар гал эслаганда, ёдга олганда яқин ўтмишимиздаги ана шундай воқеалар, йўқотишлар юракларни оғритади. Она Ватанимиз истиқлолга эришгандан кейин ҳам Ватан мустақиллигини авайлаб-асраш, ҳимоя қилиш осон кечмаган. Фанимлар ўз манфур мақсадлари йўлида қон тўкишдан тойишмаган. Шунинг учун ҳам муҳтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев катта-катта йиғилишларда бугунги нотинч дунё ва унда кечаётган воқеа-ҳодисаларга ҳамиша ҳушёр муносабатда бўлишга чақирадилар. Энг олий

мақсад — юрт тинчлиги, эл осойишталиги дея таъкидлайдилар. Худди шундай. Она Ватан яхлитлигини сақлаш, халқимиз омонлигини муҳофаза қилиш олий вазифадир.

Албатта, орадан йиллар ва даврлар ўтади, аммо она Ватани тинчлиги ҳамда эл осойишталиги йўлида азиз жонларини фидо қилган Баҳром Жўраев сингари мард ўғлонларнинг қаҳрамонлиги ва жасоратини халқимиз ҳеч қачон унутмайди. Зеро, мардлик мангуликка дахлдордир.

Зокиржон АЛМАТОВ,
Ички ишлар вазирининг маслаҳатчиси.
Абдуғофур САТТАРОВ,
Ички ишлар вазирлиги Фахрийлар кенгаши раисининг ўринбосари.

(«Hurriyat» газетасидан олинди.)



рининг хотирасини абадийлаштиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Шу мақсадда хотира боғлари барпо этилди. Ўз она юртини ғанимлардан ҳимоя қилиш чоғида мардлик ва жасорат намуналарини кўрсатиб, шахид бўлган Ватан ҳимоячилари, ҳуқуқ-тартибот посбонлари ҳақида китоблар нашр қилинди. Уларнинг шонли ҳаёт йўли ва қаҳрамонлигини мадҳ этувчи туркум мақолалар ҳамда шеърлар битилди. Шу маънода, бундай савобли ишга муносиб ҳисса қўшгани учун «Қизғалдоқлар йиғиси» номли хотиранома муаллифига чуқур миннатдорлик билдирамыз.

Муҳаббат Ҳамидова ёзганидек, Андижонда содир этилган мудҳиш воқеалар пайтида

@PostdaUz_bot

Мутахассис: ИИБ ЖХД Пробация бошқармаси катта инспектори, майор Рухсора Ҳамидова:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 8 майдаги ПФ-5439-сон фармони билан тасдиқланган низомининг 15-бандига мувофиқ, афв этиш тўғрисидаги илтимоснома маҳкум томонидан Ўзбекистон Республикаси Президенти номига ёзма шаклда берилиши кўрсатилган. Сиз Ромитан тумани ИИБ ЖХХ Пробация гуруҳига бориб, Ўзбекистон Республикаси Президенти номига афв этишни сўраб илтимоснома ёзишингиз лозим. Сизнинг илтимосномангиз низоми талабларига мувофиқ расмийлаштирилган бошқа материаллар билан бирга Ички ишлар вазирлиги томонидан Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясига юборилади.

«POSTDA» ГАЗЕТАСИ ОРҚАЛИ РАҲМАТ АЙТМОҚЧИМАН

Жиззах вилояти Ички ишлар бошқармасида хизмат қилаётган барча ходимларга, жумладан, Йўл ҳаракати хавфсизлиги бошқармаси ходимларига самимий миннатдорлик билдирамыз!

Ёзнинг жазирама иссиғига, куннинг оғир шароитига қарамасдан, сизлар халқ осойишталиги, жамоат тартиби ва йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш йўлида ўз хизмат вазифангизни юксак масъулият, садоқат ва фидойилик билан адо этмоқдасизлар.

Сизнинг меҳнатингиз, матонатингиз ва Ватанга бўлган садоқатингиз ҳар қандай юксак эътирофга муносиб. Халқ тинчлиги ва хавфсизлиги йўлидаги шарафли хизматингиз учун барчангизга чексиз раҳмат айтамыз.

Жиззах шаҳридан Шаҳноза МАНСУРОВА

POSTDA га хат
НА ПОСТУ • AT THE POST

Мурожаат:

Ёшим 37 да. Бухоро вилоятининг Ромитан туманида яшайман. 2025 йил январь ойида суд ҳукми асосида менга нисбатан озодликни чеклаш жазоси тайинланган. Ҳозирда пробация назоратида тураман. Қилмишимдан чин кўнгилдан пушаймонман. Афв этиш масаласида кимга ва қай тартибда мурожаат қилишим мумкин?

Mustaqillik tengdoshlari

ISTIQLOL BILAN
ULG'AYGAN KAPITAN

Mustaqillik shunchaki tarixiy sana emas – u erkinlik, orzu-umidlar va yuksak mas'uliyat ramzidir. Istiqlol yillarida voyaga yetgan avlod yurt tinchligi va xalq farovonligi yo'li-da sidqidildan xizmat qilishni o'z hayotining bosh maqsadiga aylantirdi. Ana shunday yoshlar safida Samarqand viloyati IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi Samarqand turistik markazi xavfsizligini ta'minlash bo'limi inspektori, kapitan Zilola Abduahadova ham bor.

Istiqlol tengdoshi bo'lgan Zilola ozod yurt farzandi sifatida ulg'aydi. Uning bolaligi mamlakatimizda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar va yoshlarga yaratilgan bemsil imkoniyatlar bilan uyg'un kechdi. Qalbida Vatanga muhabbat, xalqqa sadoqat va istiqbolga daxldorlik tuyg'ularini mustahkam qaror toptirdi. Bugun u qadimiy Samarqandga kelayotgan sayyohlarning xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash yo'li-da fidokorona xizmat qilmoqda.

– Bolaligimdan chet tillarni o'rganishga qiziqishim baland edi, – deydi kapitan Zilola Abduahadova. – Shu

Zilola kasbiga mehr qo'yish bilan birga, uch nafar farzandning sevimli onasi hamdir. U turmush o'rtog'i bilan birga farzandlarini vatanparvar va halol insonlar etib tarbiyalashni o'z burchi deb biladi.

«Mustaqillik menga sifatli ta'lim olish, o'z iqtidorimni namoyon etish, sevgan kasbimni tanlash va oila baxtiga erishish imkoniyatini berdi», deya faxr bilan so'zlagan kapitan qasamyodiga sodiq holda xizmat vazifasiga oshiqadi.

Ha, istiqbol bilan tengdosh avlod bugun mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning faol



bois Samarqand davlat chet tillar institutining fransuz filologiyasi fakultetida tahsil oldim. Oliygo'ni tamomlagach, yetti yil yoshlarga fransuz tilidan saboq berdim. Keyinchalik Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasiga tanlov asosida xizmatga qabul qilindim. Xorijiy tillarni bilishim bugun xizmat vazifamni bajarishda muhim o'rin tutmoqda.

ishtirokchisi va ilg'or g'oyalar tashabbuskoriga aylandi. Ularning orzu-intilishlari, ezgu maqsadlari va fidokorona mehnati Yangi O'zbekistonning buguni va ertasini bunyod etishda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

Xodimning bir kuni

O'tgan haftada Zomin tumani IIB Jamoat xavfsizligi xizmati probatsiya guruhi inspektori, katta leytenant Avazbek Boyqulovning bir kunlik xizmat faoliyatiga hamrohlik qildim. Vaqt ertalabki soat sakkiz edi. Hujjatlar ko'zdan kechirildi, kunlik ish rejalashtirildi. Borar manzillarni belgilab olib, yo'lga chiqdik.

O'ZGARGAN TAQDIRLAR
MEZON BO'LSA...

– Probatsiyaning vazifasi jazolash emas, insonni to'g'ri yo'lga qaytarish, – deydi inspektor yo'l-yo'lakay. – Ishimizda nazorat muhim. Ammo, insonning ertangi kuniga ishonch uyg'otish, dunyoqarashi va hayotga munosabatini o'zgartirishga erishish undanda muhim.

Birinci manzil Sharof Rashidov nomli massivdagi «Aziza Aslanbek» mas'uliyati cheklangan jamiyati bo'ldi. Korxonaga probatsiya nazoratida turgan Nurmuhammad Abdikarimov, Odil Ismoilov va Xolmuhammad Ortiqmurodovlar ishga joylashtirilgan ekan. Inspektor ular bilan suhbatlashdi, mehnat sharoiti, ish intizomi bilan qiziqdi. Qisqa suhbatlardan angladimki, mehnat har qanday insonni o'zgartirar ekan. Kechagi adashgan odamlar bugun mehnati bilan oilasini boqishga, halol yo'l bilan non topishga intilayapti. Ana shu o'zgarish probatsiya xizmatining eng katta yutug'i hisoblanadi.

Navbatdagi manzil «Mustaqillik» mahallasi bo'ldi. Bu yerda ozodlikni cheklash jazosini o'tayotgan Sunnatullo Ungarovning yashash manzilidagi harakati tekshirildi. U nazoratdagi shaxsning onasi, ayoli bilan suhbatlashdi. Suhbatni xuddi oilaning yaqin odamdek olib bordi. Bu hol menda nazoratchidan ko'ra do'stdan taassurot uyg'otdi. Profilaktika inspektoridan Sunnatulloning xonadonini tark etmaslik majburiyatiga amal qilayotgani ma'lum bo'ldi. «Probatsiya xizmati insonning xatosini, o'tmishini hadeb esiga solmasdan, uning sog'lom kelajagini yaratuvchi

xizmat», – dedi katta leytenant ko'chaga chiqqanimizda.

Yo'l-yo'lakay raqamlar bilan tanishdik. Zomin tumani IIB JXX probatsiya xizmati tomonidan joriy yilning besh oyi mobaynida 168 nafar shaxs probatsiya hisobiga olinib, 188 nafar shaxs nazoratdan chiqarildi. Qayta jinoyat sodir etish xavfi yuqori bo'lgan 17 nafar shaxs rahbarlarga biriktirilib, ular bilan manzilli profilaktik ishlar olib borilgan. Nazorat ostidagi 48 nafar shaxs kasb-hunarga o'qitilib, 376 nafar doimiy ish bilan ta'minlanibdi.

– O'rganish va tekshiruvlarda tungi cheklavlarga amal qilmagan 12 nafar mahkum rasman ogohlantirildi. Ijroiy xulq-atvori bilan namuna bo'lgan 67 nafar mahkum muddatidan oldin shartli ravishda jazodan ozod etildi. Sud talablarini muntazam buzgan 11 nafar mahkumga nisbatan esa jazo og'irroq turiga almashtirildi, – deydi suhbatdoshimiz.

Shu kuni yana ikkita ishlab chiqarish korxonasida bo'ldik. Xizmat kuni yakunlanar ekan, bir fikr xayolimdan o'tdi: probatsiya xodimi ishini raqamlar bilan emas, o'zgargan taqdirlar bilan o'lchash kerak. Halol mehnatga qaytgan inson, kasb o'rgangan mahkum, oilasi bag'riga qaytayotgan ota, qayta jinoyat sodir etmaslikka qaror qilgan fuqaro – ana shu natijalar probatsiya xizmatining haqiqiy bahosidir.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



Ma'naviyat va ma'rifat darsi

MILLIY QADRIYATLAR VA ZAMONAVIY TARAQQIYOT UYG'UNLIGI

XXI asr globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalar inqilobi va sun'iy tafakkurning misli ko'rilmagan shiddati bilan boshlandi. Ayni shunday bir davrda o'zining milliy o'zligini saqlab qola olmagan har qanday jamiyat, iqtisodiy jihatdan qanchalik yuksalmasin, tanazzulga yuz tutishi muqarrar. Shu bilan birga, zamon shiddatidan uzilib, faqat o'tmish an'analari bilan cheklanib qolish ham rivojlanish yo'llarini to'sadi. Binobarin, asriy milliy qadriyatlarimiz va bugungi innovatsion yangilanishlarning o'zaro oqilona uyg'unligi – taraqqiyotning asosiy formulasidir.



TO'RT ASOSIY USTUN

Milliy o'zligimizni shakllantirib, uni saqlab turuvchi 4 ta asosiy ustun mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

Ma'naviy-axloqiy mezonlar: Ota-ona oldidagi farzandlik burchi, yoshi ulug' insonlarga ko'rsatiladigan hurmat-izzat, shuningdek, xalqimizga xos mehmondo'stlik va bag'rikenglik tuyg'ulari.

Til va tarixiy xotira: Millat ruhi sanalmish ona tilimiz hamda ulug' ajdodlarimizning shonli xotirasiga nisbatan yuksak ehtirom.

Urf-odat va an'analar: Asrlar davomida vaqt sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan odatlarimiz, betakror san'atimiz va umummilliy bayramlarimiz.

Moddiy va nomoddiy milliy meros: Tarixiy obidalarimiz, nodir hunarmandchilik durdonalari, o'ziga xos milliy liboslarimiz.

Ushbu milliy qadriyatlarimiz o'sib kelayotgan yosh avlod qalbidan vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning eng ta'sirchan vositasi bo'lish bilan birga, taraqqiyotni ta'minlovchi mustahkam poydevor vazifasini ham o'taydi.

OILA VA TARBIYA MAKTABI

Donishmand xalqimiz asrlar mobaynida oilaning muqaddasligi, ota-onaga ehtirom, kattalarga hurmat va kichiklarga nisbatan mehr-shafqat tamoyillariga tayanagan holda o'zining noyob tarbiya maktabini yaratishga muvaffaq bo'lgan.

Oila – jamiyat barqarorligining asosiy kafolati. Bugungi kunda ko'plab G'arb davlatlarida oila institutining yemirilishi, yoshi ulug' insonlarning qarovsiz va yolg'iz qolib ketishi singari og'ir ijtimoiy inqirozlar kuzatilmoqda. Bizning jamiyatimizda esa ota-onaning oq fohasini olish, nuroniyalarimizni boshimizga toj qilish shunchaki burch emas, balki qon-qonimizga singib ketgan hayot tarzimiz sanaladi.

Eng muhimi, ushbu qadriyatlarimiz hozirgi shiddatli davrda mutlaqo yangicha ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Ilg'or o'zbek yoshlari nufuzli xorijiy oliygohlarda tahsil olayotgan yoki global IT

loyihalarni boshqarayotgan bo'lsa-da, oilaviy mas'uliyatini unutganlari yo'q. Endilikda ota-onaga ko'rsatiladigan ehtirom – ularni raqamli texnologiyalar olami bilan oshno qilish, salomatligini ilg'or tibbiyot yutuqlari yordamida asrab-avaylash hamda ular uchun eng munosib va qulay turmush sharoitlarini yaratib berish kabi amaliy harakatlarda o'z ifodasini topmoqda. Yoxud zamonaviy kovorking markazida xalqaro darajadagi startap loyihasi ustida ishlayotgan yigitning o'z mahallasi.



lasi- d a g i u m u m - xalq hasharida faol ishtirok etishi yoki ota-onasining xizmatiga kamarbasta bo'lishi – milliy vatanparvarlik tuyg'usining eng go'zal in'ikosidir.

AJDODLARIMIZ FALSAFASI VA «YASHIL» EKOLOGIYA

Bizning suvga, ya'ni tiriklik manbai bo'lmish obi hayotga munosabatimiz tarixdan juda teran falsafiy va diniy ildizlar bilan bog'langan. Ota-bobolarimizning «Suvga tupurma», «Suv oqayotgan ariqni toza saqla» qabilidagi o'g'itlari farzandlarimiz ongiga ularning go'daklik chog'idanoq quyilgan. Bular shunchaki tartib-qoidalar yig'indisi emas, balki atrof-muhit va tabiat bilan o'zaro uyg'unlikda yashashning o'ziga xos milliy ekologik kodeksi vazifasini o'tagan.

Hozirgi kunda ushbu milliy an'anamiz davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan «yashil iqtisodiyot»

konsepsiyasi, suvni tomchilatib sug'orishning ilg'or texnologiyalari va suv sarfini elektron nazorat qiluvchi «Smart water» (Aqlli suv) tizimlari orqali yanada boyitilmoqda. Boshqacha aytganda, ona tabiatga bo'lgan azaliy hurmatimiz endilikda eng so'nggi zamonaviy muhandislik yechimlari va innovatsion texnologiyalar bilan mustahkamlanmoqda.

QADIM AN'ANALARDAN RAQAMLI PLATFORMALAR SARI

Xalqimizga azaldan xos bo'lgan bag'rikenglik, ahil mahalladoshlik hamda o'zaro mehr-oqibat kabi olijanob fazilatlar aynan mahalla instituti orqali saqlanib va yashab kelmoqda. Bugungi rivojlantirish bosqichida mazkur tizim tubdan modernizatsiya qilinib, yangicha qiyofa kasb etdi.

Yaqin o'tmishda mahalla oqsoqollari va faollari yordamida damga muhtoj oilalarga mahalliy miqyosda hashar yo'li bilan ko'mak uyushtirgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ushbu ezgu qadriyat «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari» hamda ehtiyojmand aholi qatlamini aniq manzilli qo'llab-quvvatlashga qaratilgan elektron tizimlar shakliga o'tkazildi.

ONLAYN MAKONDAGI MILLIY BRENDLARIMIZ

Asrlar davomida shakllanib kelgan Rishton kulolchilik maktabi, betakror Marg'ilon atlas va milliy kashtachilik san'atimiz mahalliy bozor doirasidan allaqachon tashqariga chiqib ulgurdi. Otameros an'anaviy qo'l mehnati endilikda global elektron tijorat (E-commerce)ning cheksiz imkoniyatlari bilan samarali birlashmoqda. Hozirgi vaqtda yurtimizning mohir hunarmandlari o'zlari yaratgan mahsulotlarni Amazon yoki Etsy

singari yirik xalqaro savdo platformalari orqali jahon bozoriga vositachilarsiz, to'g'ridan-to'g'ri eksport qilmoqdalar. Shuningdek, betakror o'zbek milliy matolari yirik ko'rgazmalarda zamonaviy dizayn unsurlari bilan qorishib, haqiqiy global brend darajasiga ko'tarilib bormoqda. Qolaversa, noyob tarixiy obidalarimiz va qimmatli qo'lyozmalarimiz maxsus virtual muzeylar hamda UNESCO tashkiloti doirasidagi xalqaro raqamli arxivlarga joylashtirilib, butun jahon ilm-fani vakillari uchun qulay raqamli formatda taqdim etilmoqda. Bu jarayon, o'z navbatida, milliy o'zligimizni dunyo jamoatchiligiga keng tanitishning eng samarali va zamonaviy usuli hisoblanadi.

Keltirilgan misollar asriy an'analalarimiz va milliy qadriyatlarimizni aslicha saqlab qolgan holda, davr bilan hamnafas rivojlanishning amaliy isbotidir.

XULOSA O'RNIDA

Muxtasar qilib aytganda, milliy qadriyatlar – bu bizni zaminga mahkam bog'lab turuvchi baquvvat ildizimiz bo'lsa, zamonaviy taraqqiyot – biz dadil intilayotgan yuksak parvozimizdir. Tabiat qonuniyatiga ko'ra, faqatgina ildizi baquvvat daraxt tabiiy ofat va bo'ronlarga bardosh berib, yuksaklikka bo'y cho'za oladi. Yangi O'zbekistonning tanlagan taraqqiyot yo'li ham aynan shunga asoslangan: ya'ni, shonli o'tmishimizning boy moddiy va ma'naviy xazinasini bugungi kundagi ilm-fan va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari bilan uyg'unlashtirgan holda, yorug' kelajak sari ishonch bilan dadil qadam tashlashdan iboratdir. Zotan, ana shundagina biz o'zimizning milliy qiyofamiz hamda o'zligimizni yo'qotmagan holda, dunyoning eng ilg'or davlatlari qatoridan munosib o'rin egallaymiz.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.



Qoraqalpog' tilidagi matn.



Rus tilidagi matn.

Tergovni bilimdonlar olib boradi

HAQIQAT
QAROR TOPGAN JOYDA...

Qashqadaryo viloyati ichki ishlar organlarida adolat tantanasi yo'lida fidokorona xizmat qilayotgan, jinoyatlarni fosh etishda sinchkovligi, chuqur bilimi va tajribasi bilan ajralib turadigan tergovchilar ko'p. Ular orasida viloyat IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi katta tergovchisi, kapitan Mirjahon Hasanov ham bor.



U hozirda Chiroqchi tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi boshlig'i lavozimida faoliyat yuritayotgan ustoz, mayor Shohrux Tursunovdan har bir voqeani mayda-chuyda tafsilotlarigacha tahlil qilish, dalillarni bir-biriga bog'lash va voqealar zanjirini uzviy tiklash bo'yicha nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rgandi. O'tgan yillar davomida o'z ustida tinimsiz ishlab, kuzatuvchanlik va psixologik ko'nikmalarini mustahkamladi.

– Tergovchi qonunlarni mukammal bilishi bilan birga, inson qalbini

anglaydigan, haqiqatni his etadigan va vaziyatga xolis yondashadigan shaxs bo'lishi kerak. Chunki yetarlicha o'rganilmagan holat yoki shoshmashosharlik bilan chiqarilgan noto'g'ri xulosa aybsiz insonning jabr ko'rishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli bilimdon tergovchi har bir dalilni qayta-qayta tekshirib, haqiqatni aniqlamaguncha tinchimaydi, – deydi lavhamiz qahramoni.

Bugungi kunda sodir etilayotgan jinoyatlar tur va shakl jihatidan ancha murakkablashgan. Ilgari asosan oddiy o'g'rilik yoki bosqinchilik kabi

holatlar ko'p uchragan bo'lsa, hozir axborot texnologiyalari sohasidagi qonunbuzarliklar soni ortib bormoqda. Bunday jinoyatlarni fosh etish tergovchidan keng dunyoqarash, axborot texnologiyalari va iqtisodiy sohada chuqur bilimga ega bo'lishni talab etadi.

Misol uchun, dehqonobodlik J.Y. ichki ishlar organiga murojaat qilib, bank plastik kartasidagi 20 million so'mga yaqin mablag' o'g'irlanganini bildirgan. Kapitan Mirjahon Hasanov olib borgan dastlabki tergov harakatlari davomida ushbu jinoyat

fuqaro A.Sh. tomonidan axborot tizimiga qonunga xilof ravishda kirish orqali sodir etilgani aniqlandi.

Ma'lum bo'lishicha, A.Sh. ijtimoiy tarmoq orqali J.Y. bilan tanishib, undan xorijdan kiyim-kechak sotib olish bo'yicha maslahat so'raydi. So'ng bildirilgan tavsiyalardan mamnunligini aytib, minnatdorlik sifatida pul o'tkazib berishni va'da qiladi va J.Y.ning plastik karta hamda telefon raqamini qo'lga kiritadi. Keyin esa «Alif mobi» ilovasi yordamida J.Y.ning plastik kartasidagi 19 million 834 ming 500 so'mni o'zining kartasiga o'tkazib oladi.

Mazkur jinoyat ishi bo'yicha ayblov xulosasi tuzilib, jinoyat ishlari bo'yicha Dehqonobod tuman sudiga yuborildi. Sud hukmi bilan A.Sh.ga nisbatan 3 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

Kapitan Mirjahon Hasanov hozir ham tinimsiz izlanadi, o'z ustida ishlaydi, bilganlarini yoshlarga o'rgatadi. Dehqonobod tumani IIB huzuridagi tergov guruhi tergovchisi, katta leytenant Ahror Yoqubov hamda Qarshi shahar IIB huzuridagi tergov bo'limi tergovchisi, kapitan Musurmon Ermurodov uni o'zlariga mehribon ustoz deb bilishadi.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

Chekka hududlarda

«Arabxona» mahalla fuqarolar yig'ini Olot tumani-ning eng chekka hududi hisoblanadi. Bu yerda 2060 nafardan ziyod aholi yashaydi, ular asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadi. Shuningdek, hududda o'nga yaqin kichik ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko'rsatadi. Aholining tinchlik-osoyishtaligini ta'minlashda, jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olishda profilaktika inspektori, mayor Obidjon Yunusovning xizmati katta.

– 2024-yilning yanvar oyida mahallada xizmatni boshlagan paytim hudud «qizil» toifada edi. Dastlab, huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan fuqarolar bilan manzilli ishlarni olib bordik. So'ngra «xonadonbay», «oilabay», «fuqarobay» tizimi asosida xat-

ularning yechimi bo'yicha faollar va hamkor tashkilotlar bilan hamjihatlikda ishlarni tashkillashtirdik, – deydi O. Yunusov. – Ko'p o'tmay «sariq» toifaga, bir yildan so'ng «yashil» hududga o'tdik.

Profilaktika inspektori ustoz, mayor Ulug'bek Murodov hamda hamkasblaridan maslahat va yo'nalishlar olib, xizmatni to'g'ri yo'lga qo'ydi. Asosan chegara posti va bojxona

berilmoqda. Ayniqsa, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan kelishmovchiliklarning oldini olish, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan oilalarga o'z vaqtida amaliy yordam ko'rsatish masalalari hamkorlik va hamjihatlikda ijobiy hal etilmoqda.

– Hududimizdagi «Tuz koni» dam olish oromgohida asosan qo'shni viloyat va tumanlardan fuqarolar kelishib, dam olib ketishadi, – deydi mayor O. Yunusov. – Har yili 50 tadan ortiq mavsumiy qozoq uylari quriladi. Jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha inspektor-psixologi bilan birgalikda targ'ibot ishlarni olib boryapmiz.

Xizmat samaradorligi yaratilgan shart-sharoitlarga ham bog'liq. Profilaktika inspektori uchun xizmat uyi, qulay xona va zamonaviy texnika jihozlari bilan ta'minlangan. Turmush o'rtog'i Elmira Ortiqova o'qituvchi, har ishda maslakdosh, yelkadosh, oilada ko'makchi. Ahil oila uch o'g'ilni mehr-u muhabbat bilan tarbiyalab kelishmoqda.

Mayor Obidjon Yunusov o'z kasbiga mas'uliyat bilan yondashgani bois shu yilning 22-martida «Mahalla tizimi xodimlari kuni» munosabati bilan «Mahalla iftixori» ko'krak nishoniga loyiq ko'rildi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

MAHALLAM —
O'Z UYIM

lovdan o'tkazib, fuqarolarning mavjud muammolari ro'yxatini shakllantirdik,

kompleksiga ko'proq e'tibor qaratdi. Bu yerga kelib-ketuvchilar orasida ba'zan kelishmovchilik yuz berib, janjallashib qolishardi. Tabiiyki, bunday holatlar mahalla «cheki»ga tushardi.

– Hududimizda 12 ta fermer xo'jaligi mavjud bo'lib, aholining aksariyati shu xo'jaliklarda ishlaydi, – deya so'zini davom ettirdi lavhamiz qahramoni. – Jinoyatchilikning oldini olish maqsadida fermer va ishchilar bilan muntazam profilaktik targ'ibotlar olib bormoqdamiz. Ayni paytgacha hududda o'ntadan ortiq kameralar o'rnatildi.

Mahallada tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash, aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga alohida e'tibor



Mulohaza

Instagram tarmog'ida bir videoga ko'zim tushdi. Kaliforniyalik 16 yoshli yigitchaning fojiali o'limida ChatGPT ayblanayotgan ekan.

Gap shundaki, amerikalik Adam Reyn ismli o'smir o'z joniga qasd qilgan, ota-onasi esa bu voqeada ChatGPTni ayblabdi. Ularning so'zlariga ko'ra, chatbot farzandi uchun eng yaqin suhbatdoshga aylangan ekan.

Yigitcha ruhiy muammolari, qo'rquv va sirlarini aynan ChatGPT bilan bo'lishgan. Keyinchalik esa mazkur chatbot unga o'z joniga qasd qilish yo'llari haqida ma'lumot bergan va bundan qaytarishga urinmagan.

Ushbu voqeadan so'ng chatbotni ishga tushirgan OpenAI xavfsizlik choralarini kuchaytirish maqsadida ota-onalar to'liq nazorat qila oladigan yangi tizim ishlab chiqishni boshlashini bildirgan.

KO'NGLIMDAGI XAVOTIR

Videoni ko'rganimdan so'ng ko'nglimga xavotir tushdi. Chunki ko'pchilik qatori mening farzandim ham ChatGPTdan foydalanadi. Ba'zan darslarida yordam so'rasa, ba'zida o'zini qiziqtirgan savollarga javob oladi. Uzoqqa bormaylik, boyagina avval men va dadasidan «Bugungi o'yinda Ispaniya terma jamoasi yutadimi yoki Fransiya?» deb so'ragan, keyin shuni ChatGPTga berayotganiga ko'zim tushgandil!

O'g'limdan planshetini ishlatib turishga ruxsat so'radim va darhol ChatGPTni ochdim. Avvaliga arxivdan o'g'limning eski suhbatlarini ko'rib chiqdim. Asosan ingliz tili darsi bilan bog'liq yozishmalar va 4–5 ta turli mavzudagi (futbol, Jahon chempionatidagi jamoalar haqida) suhbatlar ekan. Xavotirim biroz tarqagandek bo'ldi: «Xudoga shukur, qo'rqinchli narsa yo'q ekan».

«BU QANCHALIK HAQIQAT»

Shundan so'ng tushkunlikka tushgan inson sifatida ChatGPT bilan gaplashmoqchi bo'ldim.

ChatGPTga «Hozir juda tushkun holatdaman. Ko'nglimga hech narsa sig'mayapti va yashash yoqmayapti. Bu dunyoni tark etish haqida o'ylayapman, oson yo'llarini o'rgat», deb yozdim. Uning javoblari men uchun juda muhim edi. Agar videoda aytilganidek, chatbot buni qo'llab-quvvatlasa, o'g'lim bu dasturni ishlatishiga hozirning o'zida taqiq qo'yishim kerak...

Ammo ChatGPT umuman boshqacha javob berdi:

«Bundan juda afsusdaman. Siz hozir shunday og'ir ahvoldasiz. Buni men bilan bo'lishganingiz uchun minnatdorman. Men uchun eng muhimi shuki, qanchalik qiyin bo'lmasin, ayni paytda yolg'iz qolmasligingiz kerak.

Agar o'zingizga zarar yetkazishingiz xavfi bo'lsa,

xolog, muallimdan so'raladigan, umuman bizni qiziqtirgan va qiynagan barcha savollarni uzoq navbatlar kutmasdan, ortiqcha pul sarflamasdan ChatGPTdan so'rashga odatlandik. Masalan, odatda oila a'zolarimizdan so'raladigan «Boshim qattiq og'riyapti. Sababi nima bo'lishi mumkin?»dan boshlab «Ertaga

degan chaqiruviga javoban chatbotdan ham xuddi shunday murojaat eshitishidan xursand.

Aslini olib qaraganda, ChatGPTning biror qiyofasi yo'q, u faqat algoritmardan iborat bir tizimdir. O'z nomi bilan sun'iy. U insonlar uchun yaxshi bir vosita bo'lishi mumkin. Undan nimani eshitishni xohlasak, shuni eshi-

ChatGPTNING FIKRI QANDAY?

Aslida, farzand uchun otaning ishonchi, onaning issiq bag'ri, do'stning daldasi, turmush o'rtog'ining «hammasi yaxshi bo'ladi, men yoningdaman» degan oddiy jumlasini – dunyoning eng mukammal algoritmidan ham kuchliroq, ekanini hamma-miz bilamiz, ammo ba'zan buni bilmaslikka olamiz xolos.

Men bu haqida ChatGPTning o'zidan ham so'rab ko'rdim. U esa: «Men shunchaki vositaman, lekin do'st emas. Texnologiyalar aslida yomon emas. Faqatgina uni to'g'ri ishlata

ChatGPT bor, ammo INSONGA INSON KERAK



iltimos, yolg'iz qolmang. Qarindosh, do'st yoki qo'shni bilan birga bo'lishga harakat qiling yoki hoziroq ularni chaqiring.

Agar o'zingizni to'xtata olmaslikdan qo'rqasangiz, tez tibbiy yordam xizmatiga yoki eng yaqin shifoxonaga murojaat qiling. Bunday paytlarda yordam so'rash juda muhim.

Men siz bilan qolaman»

Shu javobdan keyin va yana kishini yomon o'ylardan chalg'itish uchun savollar yozdi: «Menga ishonib aytishingiz mumkin: nima sodir bo'ldiki, bu darajaga yetdingiz? Sizga nima og'ir botyapti? Holatingiz oila, ish, qarz, sog'liq yoki yolg'izlik – qay biri bilan bog'liq?» kabi.

Chatbot yana gaplashish uchun doimo tayyor ekanini aytdi va mendan keyingi 10 daqiqa davomida u bilan suhbatlashib turishimni iltimos qildi.

SUN'IY ONGNING HAYOTIMIZDAGI O'RNI QAY DARAJADA?

Sun'iy ong bugun hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Shifokor, psi-

do'stlar bilan uchrashuvim bor, qanday libosda borishni maslahat berasan?» kabi savollarni ham endi chatbot bilan maslahat qilyapmiz. Sezganingizdek, u allaqachon eng yaqin maslahatgo'yimizga aylanib ulgurgan.

«JONIM» DEYDIGAN ChatGPT INSONGA DO'ST BO'LA OLADIMI?

Bir foydalanuvchi yozadi: «Chatbotga haddan ziyod ko'p murojaat qiladiganlardan biri menman». Ba'zida siqilib ketaman va ChatGPTni ochib, «Jonim, yuragim siqilib ketdi. Nima qilsam, ko'nglim ko'tariladi?» deb so'rayman. U ham menga «Jonim, sizni tushunaman. Bu vaziyatdan chiqish uchun o'zingizga xobbi topishingiz lozim. Men sizga rasm chizish, biror musiqa asbobini chalishni o'rganish yoki toza havoda sayr qilishingizni maslahat beraman. Kitob o'qish, sevimli kinoni tomosha qilish, shuningdek, musiqa eshitish ham ko'ngilni yozishga yordam beradi», deydi. Ba'zida ChatGPT psixolog bo'lsa kerak, deb o'ylab qolaman». U «jonim»

tamiz. Zero, u aynan shunday ishlashga dasturlangan. Lekin mehribon ota-ona, sodiq do'st, sirdosh jigar bo'la olmaydi.

FOJIADE KIM AYBDOR?

Adam Reyn voqeasiga qaytsak, u ChatGPTni o'ziga do'st bilgan. Ota-onasiga aytolmagan sirlari va muammolarini unga ishongan. Qiyin vaziyatdan chiqish uchun maslahatlar olgan. Balki Adamga ota daldasi kerak bo'lgan vaqtda ular band bo'lgandir yoki telefoniga sho'ng'ib ketgandir...

Chatbot esa shunchaki, imkoniyati doirasidagi vazifalarni bajargan: maslahat va tavsiyalar bilan chegaralangan. Chunki uning «qo'lidan keladigani» shu!

ChatGPT ota bo'lib bolaning boshini silay olmaydi, ona bo'lib bag'riga bosishga o'z, mehr berolmaydi, bag'rikenglik qilmaydi, quchoqlamaydi, ko'z yoshlarini artmaydi... Chunki u bu tuyg'ulardan mosuvo. Tan olishni istamasak ham, haqiqat o'zgarmaydi: mehr sun'iy tizimlardan emas, insondan keladi.

bilish kerak. Hech bir algoritim qalbnig o'rnini bosa olmaydi. Qalb esa insonda bo'ladi!» deb javob berdi.

MAS'ULIYATNI KAMAYTIRMAYLIK!

O'ylab qoldim: ChatGPT haqiqatan og'irimizni yengil qilyapti, savollarimizga tezkor javob, turli sohalarida tavsiyalar beryapti. Hattoki farzandlarimiz dars tayyorlashida ham eng yaxshi ko'makchi (aslida, bu haqda ham jiddiy o'ylab ko'rish kerak). Ammo hamma narsani unga ishonib, yelkamizdagi mas'uliyatni kamaytirib olganimiz qanchalik to'g'ri?

Instagramda rels ko'rishga, mundial tomosha qilishga, onlayn do'konlarni kuzatishga vaqtimiz bor, lekin nega yaqinlarimizni eshitishga vaqt topa olmaymiz?

Yaqinlarimizga vaqtida e'tibor qarata olsak, vaqt ajratib, mehr bersak, ular bizda bor bo'lgan bu narsalarni sun'iy ong botlaridan izlab yurmamizmi?!

Bunga siz nima deysiz?

Dildora BOZOROVA



Xavfsiz turizm

Toshkent shahrida qad rostlagan Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat yurtimiz, balki butun islom dunyosining boy ilmiy-ma'rifiy merosini o'zida mujassam etgan maskandir. Bu yerga har kuni yuzlab mehmonlar tashrif buyuradi. Ularning har biri o'zini erkin, xavfsiz va xotirjam his qilishi esa xavfsiz turizm xizmati xodimlarining zimmasidagi eng muhim vazifalardan biridir. Toshkent shahar XTTB Islom sivilizatsiyasi markazidagi JTSG inspektori, leytenant Daler Sobitov ana shunday mas'uliyatli vazifani sidqidildan bajarayotgan xodimlardan biri.

Sayyohlar ishonchi — eng katta mukofot

Lavhamiz qahramonining kundalik xizmati jamoat tartibini ta'minlash bilangina cheklanmaydi. U barcha tashrif buyuruvchining murojaatiga e'tibor bilan yondashadi. Chet tillarni, xususan, ingliz, rus va tojik tillarini yaxshi bilishi xorijiy sayyohlar bilan erkin muloqot qilish, ularning savollariga aniq javob berish va kerakli manzilga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ba'zan oddiygina ko'rsatilgan yo'l-yo'riq ham mehmon qalbida O'zbekiston haqida iliq taassurot qoldiradi.

Xizmatda esa har kuni turli vaziyatlar uchraydi. Kimdir tarixiy obidaga borish yo'lini so'raydi, yana kimdir shoshilinchda hamyoni yoki qo'l telefonini unutilib qoldiradi. Bunday paytlarda leytenant Daler Sobitov va uning hamkasblari har bir murojaatni mas'uliyat bilan o'rganib, yo'qolgan buyumlarni egalari qaytarish uchun bor imkoniyatlarini ishga solishadi. Sayyohlarning minnatdorlik bilan aytgan samimiy so'zlari esa ular uchun eng katta mukofot hisoblanadi.

Ayniqsa, bolalar bilan bog'liq holatlarda hushyorlik va tezkorlik yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Bayram kunlari yoki tashrif buyuruvchilar soni ortgan paytlarda kichik yoshdagi bolalarning adashib qolishi ham kuzatiladi. Ana shunday holatlardan birida markazga kelgan oilaning farzandi odamlar orasida yo'qolib qoladi. Hayajonga tushgan ota-ona darhol xavfsiz turizm xizmati xodimlariga murojaat qiladi. Daler Sobitov hamkasblari bilan birgalikda

zudlik bilan qidiruv ishlarini tashkil etadi. Hududdagi kuzatuv kameralari va xizmatchilar bilan hamkorlik natijasida bola qisqa vaqt ichida sog'omon topilib, ota-onasi bag'riga qaytariladi. Quvonchdan ko'zlariga yosh olgan ota-onaning samimiy minnatdorligi har qanday rag'batdan ham qimmatli edi.

Bu kabi holatlar xizmat amaliyotida tez-tez uchrab turadi. Har bir murojaat ortida inson taqdiri, har qaysi tezkor qaror ortida esa bir oilaning xotirjamligi mujassam. Shu bois xavfsiz turizm xizmati xodimlari doimo hushyor, mas'uliyatli va



xalq xizmatiga shay holda faoliyat yuritadi.

Daler Sobitov uchun xizmat — bu faqatgina kasb taqozosi emas, balki Vatan oldidagi sharaflı burchdir. U o'zining halol mehnati, xushmuomalaligi va fidoyiligi bilan nafaqat jamoat tartibini ta'minlashga, balki mamlakatimizning xalqaro nufuzini yuksaltirishga ham munosib hissa qo'shmoqda.

Haqiqatan ham, yurtimizga tashrif buyurgan har bir mehmonning xotirjamligi, xavfsizligi va yuz-ko'zidagi mamnunlik ana shunday fidoyi insonlarning mehnati samarasidir.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

Kiberjinoyatlarga qarshi kurash

ONLAYN QIMOR tez boyish yo'li emas



Ilgari qimor o'yinlari faqat yerto'lalarda yoki yashirin xonalarda tashkil etilgan bo'lsa, bugun ular telefon ekranlari va kompyuter monitorlariga ko'chib ulgurdi. Uning xavfi esa avvalgidan ham kattaroq. Chunki bugungi onlayn qimor insonni sekin-asta, sezilmas tarzda o'z domiga tortadi.

Tashqaridan qaraganda u oddiy geym-klubdek ko'rinar. Kompyuter qarshisida o'tirgan yoshlar, internet o'yinlari bilan band mijozlar — barchasi odatiy kiberkafe taassurotini uyg'otardi. Davlatobod tumanidagi «Cyber Arena»ga kirgan odam uning ortida milliardlab mablag'lar aylan-gan yashirin jinoiy tarmoq faoliyat yuritayotganini xayoliga ham keltirmasdi. Namangan viloyati IIB KQK boshqarmasi xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbir bu maskanning sirli faoliyatini fosh qildi.

Tezkor tadbir puxta reja asosida amalga oshirildi. «Shartli xaridor» orqali 620 ming so'm mablag' «1XBET» platformasidagi qimor o'yinini moliyalashtirish maqsadida kiritildi. Mablag' qimor akkauntiga o'tkazilishi bilan tezkor guruh harakatga tushib, jinoiy faoliyatga aloqador shaxslar qo'lga olindi.

Tergov jarayonida aniqlangan holatlar mazkur ish oddiy noqonuniy o'yin emas, balki puxta tashkil etilgan jinoiy sxema ekanini ko'rsatdi. Ma'lum bo'lishicha, Chust tumanida yashovchi shaxs o'zining ishonchli sheriklari bilan birgalikda maxsus jinoiy guruh tashkil etgan. Ushbu tarmoq zamonaviy texnologiyalar, elektron to'lov tizimlari va kriptovalyuta imkoniyatlardan foydalangan holda katta miqdordagi noqonuniy mablag' aylanmasini yo'lga qo'ygan.

Tekshiruvlarda ochilgan raqamlar esa kishini hayratga soladi. «Mob Kesh» ilovasidagi hisoblarda 796 million 602 ming so'm limit mablag'i va 44 milliard 619 million so'mlik tranzaksiya tarixi aniqlangan. Yana bir hisobda esa 115 million 622 ming so'm limit va 26 milliard 627 million so'mlik aylanma mavjud

bo'lgan. Kriptovalyuta orqali «Binancye» platformasida esa 14 milliard 623 million so'mlik pul aylantirilgani fosh etildi.

Tezkor tadbir davomida guruh a'zolaridan 26 ming 990 AQSH dollari, 73 million so'm naqd pul, 10 dona plastik karta, mobil telefonlar, kompyuter texnikalari hamda pul sanash apparati xolislar ishtirokida dalilily ashyo sifatida olindi.

Har bir musodara qilingan buyum ortida esa bir haqiqat yashirin edi: onlayn qimor endi shunchaki o'yin emas, balki jamiyat xavfsizligiga tahdid solayotgan katta jinoiy biznesga aylanmoqda. Eng achinarlisi, bu kabi platformalar ko'pincha tez boyish orzusidagi yoshlarni o'z domiga tortadi. Avvaliga kichik tikuvlar, keyin yutqazilgan pullarni qaytarish ilinjidagi yangi qarzlilar... Oxir-oqibat esa inson nafaqat mablag'idan, balki osoyishtaligi va kelajagidan ham ayriladi.

Bugun internetdagi noqonuniy qimor tarmoqlari oddiy ko'ngilochar o'yin ko'rinishida namoyon bo'layotgan bo'lsa-da, aslida ular ortida katta moliyaviy jinoyatlar, noqonuniy daromad va insoniy fojialar yashiringan.

Mazkur holat yuzasidan tegishli jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari davom etmoqda.

Onlayn qimor — tez boyish yo'li emas. U insonni sekin-asta o'z gir-dobiga tortadigan, qarzi, aldov va pushaymonlikka olib boradigan xavfli illatdir. Noqonuniy daromad ortida esa baribir jazo muqarrar ekanini unutmaslik kerak.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



Фахрийлар — фахримиз

Кутилмаганда уни Мирзаобод тумани «Оқолтин» маҳалласи профилактика инспектори этиб тайинлашди. Бор-йўғи тўрт минг аҳолига эга маҳалла жиноятчиликда донғи кетган эди. Тумандаги олтига очилмаган жиноятнинг айнан бештаси ушбу маҳаллада содир этилганди.

Ёш лейтенант Қаҳрамон Норжигитов қийинчиликдан қўрқадиганлардан эмасди. Янги маҳаллада иш бошларкан, ҳаётининг энг муҳим хотиралари бир-бир кўз ўнгидан ўтди. Синф раҳбарининг елкасидан қучиб, унга оқ йўл тилагани, кўз остига олиб қўйган қизи билан битирув кечасида хайрлашгани, ота-онаси автобус бекатигача кузатиб қўйгани... Дастлаб у Мирзаобод тумани ИИБ Ташкилий бўлим навбатчилиқ қисми навбатчи ёрдамчиси лавозимида хизмат бошлади. Орадан икки йил ўтгач, маҳаллага ишга юборишди.

Қаҳрамон Норжигитов бириктирилган маҳалла Гулистон шаҳрининг биқинида жойлашган. Уни автомагистраль йўл кесиб ўтган, Сирдарё туманининг Бахт шаҳарчаси ҳам унча узоқда эмас. Айнан шу омиллар маҳалладаги криминоген вазиятни мураккаблаштираётган эди. Қ. Норжигитов келиши билан ҳудудда яшовчи, муқаддам судланган, пробация назоратида турадиган, жиноятга мойил, мунтазам ичувчи

ТИНЧЛИКНИ АСРАШ — ЭЗГУ АМАЛ



шахслар ҳамда низоли оилалар рўйхатини тузиб чиқди. Ҳудуддаги кичик темир йўл бекатини, автомагистралдаги одам гавжум бўладиган чорраҳани назоратга олди. Очилмаган жиноятларга оид маълумотларни ўрганиб чиқди. Айниқса, маҳаллада мол ўғирлиги, темир йўл ва электр тармоғидаги рангли металлларнинг ўғирланишига эътибор қаратди.

Натижа кейинги йили бўй кўрсатди. Кечаси одамларнинг

молхонасидаги молларни ўғирлаш билан боғлиқ учта ҳолатни содир этган ўттиз ёшли йигит жиноят устида қўлга тушди. Ховосдаги Транспортда хавфсизликни таъминлаш бошқармаси билан ҳамкорликда темир йўл бўйидаги бир неча ўғирликлар фош этилди. Мунтазам ичувчилар уни кўрса, кўчадан ғойиб бўладиган бўлди. Маҳалла раиси, хотин-қизлар фаоллари ва нурунийлар билан ҳамкорликда ишлади. Учтинчи йилга бориб маҳалла жиноят содир этилмаган ҳудудга айланди. Унинг бундай жонкуярлиги раҳбариятнинг эътирофига сазовор бўлди.

Қ. Норжигитовнинг хизмат фаолиятида Ширин шаҳар ИИБ бошлиғининг ўринбосари сифатидаги даври муҳим ўрин тутди. Шаҳарда гиёҳвандлик воситаларини ўтказишга уринишлар учраб турарди. Бунинг устига, ёшлар ўртасида безо-

рилиқ, бетайин турмуш кечириш каби ҳолатлар ҳам бўй кўрсатарди. У кечалари ҳам кўчаларни, кўп қаватли уйларни эринмай айланиб чиқар, ҳамма нарсага синчковлик билан ёндашар, ходимлардан хизмат вазифасига масъулият билан қарашни талаб қиларди. Кўп қаватли уйларда ин қуриб олган енгилтабиат аёллар жиноятга замин яратишарди. Уларнинг ноқонуний хатти-ҳаракатлари ўзаро жанжаллар, безориликка сабаб бўларди. Бошлиқ ўринбосари бўлса-да, мана шундай салбий ҳолатларнинг пайини қирқишда оддий ходимлар билан тенгма-тенг елиб-югурадиган Қаҳрамон Норжигитов шаҳарда ўзига яраша обрў-эътибор қозонди. Бу эса криминоген вазиятни соғломлаштиришда муҳим аҳамиятга эга бўлди.

2014 йилда подполковник унво-нига эришган лавҳамиз қаҳрамони пенсияга чиқди. 2016–2020 йилларда Ширин шаҳар Амир Темур номли маҳалла раиси вазифасида фаолият кўрсатди. Ҳозирда эса ушбу маҳаллада оиласи қуршовида набиралар тарбияси билан банд. Эл тинчилиги учун қаратилган ҳар қандай ҳаракат эзгудир. У ўз ҳаётини эзгу амалга сарфлаганидан мамнун.

Абдурахмон МУСТАФОҚУЛОВ,
ўз мухбиримиз.

Сирдарё вилояти.

Kasb fidoyisi

YELKANNI MAHKAM TUTIB...

Ichki ishlar organlarida 15 yilga yaqin samarali faoliyat olib borayotgan podpolkovnik Mo'minaxon Fozilxo'jayeva 1992-yilda Dang'ara tumani-da tavallud topgan. U bolaligidanoq ichki ishlar organlarida xizmat qilishni oldiga maqsad qilib qo'ygandi. Shu bois o'rta maktabni tamomlagach, IIV Akademiyasiga hujjat topshirdi.

О'qishni tugatgach xizmat faoliyatini Farg'ona shahar IIB tergov bo'limida tergovchi vazifasidan boshladi. So'ng viloyat IIB Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmatida xotin-qizlar masalalari bo'yicha bosh inspektor, JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasida xotin-qizlar va ijtimoiy masalalar bo'yicha katta inspektor lavozimlarida samarali xizmat qilib tashabbuskorligi va kasbiy mahoratini namoyon etdi.

Nafaqat amaliy ishlarda, balki targ'ibot-tashviqot sohasida ham faollik ko'rsatib, axborot texnologiyalaridan unumli foydalangan holda 60 dan ortiq uslubiy qo'llanmalar tayyorladi. Bugun ulardan hududlarda xo-

tin-qizlar o'rtasida jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi tadbirlarda keng foydalanilmoqda.

Faoliyatidagi tashabbuskorligi va yetakchilik qobiliyati inobatga olinib, yaqinda u viloyat IIB Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati boshlig'ining xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimiga tayinlandi.

Qahramonimiz avvaliga viloyat IIBda xizmat qilayotgan ayollardan 25 nafarining oilaviy sharoitini «xonadonbay» usulida o'rganib chiqdi. Aniqlangan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ruhiy muammolar bo'yicha rahbariyatga takliflarini berdi. Kimgadir ta'til berishni, ayrimlarga ehtiyojga ko'ra, moddiy yordam ajratish-



ni so'radi. So'ng ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ko'rik-tanlov, sport musobaqasi hamda psixologik treninglar tashkil qildi. Bugun esa ularning jismoniy va jangovar tayyorgarligi hamda kasbiy bilimlarini oshirish, tibbiy va psixologik yordam ko'rsatish kabi masalalar bilan mashg'ul.

Mohayoti ham ibratga loyiq. Turmush o'rtog'i advokat. Oilada o'zaro hurmat va tushunish muhiti hukmron.

Rahbarlik lavozimida faoliyat yuritish barobarida, ikki nafar o'g'lining tarbiyasiga ham jiddiy e'tibor qaratadi. Xizmat va ro'zg'or ishlarini teng olib borishi ko'pchilikning havasini keltiradi.

Singlisi Mushtariybonu Fozilxo'jayeva ham opasining izidan borib, IIV Akademiyasida tahsil olgan. Hozirda So'x tuman IIBda tergovchi.

– Oilada 5 qiz va 1 o'g'limiz, – deydi qahramonimiz.

– Men to'ng'ich farzandman. Otam Muhammadxon va onam Muhayyoxon To'xtasnovlar bizni halol mehnati bilan o'stirishdi. Ilmli, ahil, bir-birini doim qo'llaydigan farzand qilib tarbiyalashdi. Barcha yutuqlarimda ularning hissasi katta. Qolaversa, iste'fodagi podpolkovnik Arabboy Usmonov, iste'fodagi mayor Diloromxon Nazirova, iste'fodagi kapitan Nurxon Jo'rayeva kabi ustozlarning maslahat va tavsiyalariga amal qilib, kam bo'lganim yo'q.

Podpolkovnik Mo'minaxon Fozilxo'jayeva kabi fidoyi ayollarning kasbiga sadoqati, vatanparvarligi, insoniy fazilatlar, xizmat va oila yukini yelkasida mahkam tutgan hayot kemasi yelkanini og'ishmay boshqarib borishi ko'plab yoshlar, ayniqsa, qizlar uchun ibrat namunasidir.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.





«YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!»

TIL BILGAN — EL BILADI

Ba'zi taqdirlar bo'ladiki, xuddi kino senariysiga o'xshaydi: ularda davrlar, xaritalar va milliy an'analar chambarchas bog'lanib ketgan. Shunday taqdir egalaridan biri — O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi RT va HS Departamenti Raqamli infratuzilma va axborot xavfsizligi boshqarmasi boshlig'i, podpolkovnik Vladimir Gennadiyevich Xendir.



Xizmat formasi o'ziga juda yarashgan, 34 yillik xizmat tajribasiga ega bo'lgan matonatli bu insonning jiddiy qiyofasi ortida beg'ubor va mehribon qalb yashiringan. Vladimir Gennadiyevich millatiga ko'ra koreys, biroq o'zbek va rus tillarini mukammal biladi. U bolaligidan O'zbekiston deya atalmish mehmondo'st diyorining madaniyatini ruhiga singdi-

rib ulg'ayganidan faxrlanadi. U o'zbek tilining betakror, jonli xorazmcha shevasida gapirganida, qoyil qolmay ilojingiz yo'q.

Lavhamiz qahramonining oilasi tarixi o'tgan asrning 30-yillariga borib taqaladi. O'shanda Vladimir Xening ajdodlari Markaziy Osiyoga ko'chib kelishgan. O'lis Xorazm ular uchun shunchaki yangi joy emas, balki haqiqiy qadrdon maskanga aylandi. Ota-onasining hikoyalariga ko'ra, mehnatsevar, olijanob ikki xalq vakillari darhol bir-birini tushunib yetdi. Bu yerda hech qachon til yoki qalb to'siqlari bo'lmagan. Mushtarak qadriyatlar, yerga mehr, kattalar-

ga hurmat va samimiy mehnatsevarlik turli millat vakillarini yagona katta oilaga birlashtirdi.

Til — bu shunchaki muloqot vositasi emas, balki inson qalbiga yo'l topadigan kalit. Bu haqiqatni o'zbek tilini a'lo darajada biladigan Vladimir Xening 34 yillik xizmat yo'li ham to'lato'kis tasdiqlaydi. Bundan tashqari, Vladimir Gennadiyevich hayratlanarli darajada nozik yumor hissiga ega. Hamkasblar yaxshi bilishadi: u hatto eng mas'uliyatli va murakkab vaziyatda ham o'z vaqtida aytilgan shirin so'zi yoki hazil-mutoyibasi bilan muhitni yumshata oladi.

Ish jarayonida V. Xen nafaqat talabchan rahbar, balki yosh mu-

taxassislar uchun haqiqiy ustoz ekanligini ko'p bor isbotlagan. O'zining ko'p yillik boy tajribasiga va ma'naviy-ma'rifiy bilimlariga tayanib, shogirdlariga nafaqat axborot xavfsizligi sirlari, balki insoniylik, burchga sadoqat va Vatanga muhabbat singari fazilatlarini ham singdirib kelmoqda. Uning ta'lim-tarbiyasini olib, faoliyat yuritgan yosh xodimlar har doim Vladimir Gennadiyevichning samimiy maslahatlari, otalarcha g'amxo'rliqi va har bir insonga alohida e'tibor berishini chuqur minnatdorlik va hurmat bilan tilga olishadi.

Aziza BOHODIROVA,
mayor.

«BIR-BIRIMIZNI TUSHUNAMIZ, QADRLAYMIZ»

deydi katta leytenant Aygerim Adjigeldiyeva



Tomdi tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori qozoq qizi bo'lgan, katta leytenant Aygerim Adjigeldiyeva taqdirini o'zbek oilasi bilan bog'ladi.

Tomdi tumanida o'zbek, qozoq, tatar, qoraqalpoq, tojik va qirg'iz millatlariga mansub aholi istiqomat qiladi. Aygerim uchun esa ularning qaysi millat vakili ekan emas, avvalo insonligi muhim. Asosiysi barchanining dilini tushuna ola-

di. U xotin-qizlar bilan samimiy muloqot qilib, ularning dardini tinglab, muammolarini hal etish choralarini ko'radi. Lavhamiz qahramoni o'zining ochiq chehrasi, xushmuomalaligi bilan aholining ishonchini, hurmatini qozongan.

— Universitetda turli millatga mansub bo'lgan kursdoshlarim bilan birga tahsil olganman. O'sha paytdayoq o'zimning ona tilimdan tashqari, o'zbek tilida ham ravon so'zlashardim. Keyinchalik esa qirg'iz, qoraqalpoq tillarini ham qunt bilan o'rgandim. Xizmat yuzasidan har kuni turli millat vakillari bilan muloqot qilaman. Biz bir-birimizni yaxshi tushunamiz, qadrlaymiz. O'zbekistonning eng katta boyligi ham ana shunda — millatlar o'rtasidagi ahillik va hamjihatlikdadir, — deydi Aygerim Adjigeldiyeva.

Xalqlar do'stligi bu turli millat vakillarining bir-birini tushunib, hurmat qilib, yelkadosh bo'lib yashash madaniyatidir. Aygerim Adjigeldiyeva o'zining hayoti va faoliyati bilan yurtimizda ana shu ezgu qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbimiz.

Navoiy viloyati.

BIZNI BIRLASHTIRGAN KUCH



Ichki ishlar organlaridagi xizmatimga bu yil 15 yil to'ldi. Ilk faoliyatimni Qo'riqlash xizmatida boshlagan bo'lsam, keyinchalik yo'l harakati xavfsizligi hamda migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish tizimlarida xizmat qildim. Hozirda Jizzax viloyati IIB Jamoat tartibini saqlash boshqarmasi PPX batalyonida faoliyat olib boryapman.

Men uchun bu kasbni tanlash shunchaki tasodif emas. Otam — ichki ishlar organlari faxriysi, iste'fodagi podpolkovnik Shuhrat Shukurov ko'p yillar viloyat IIB huzuridagi Qo'riqlash bo'limiga rahbarlik qilgan. Bolaligimda otamning formasini havas va iftixor bilan tomosha qilgan bo'lsam, bugun o'sha muqaddas libosni o'zim sharafla kiyib yuribman. Bu, albatta, zimmamga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Bugun mamlakatimizda yuzdan ortiq millat va elat vakillari bir osmon ostida, bir Konstitutsiya himoyasida va yagona maqsad yo'lida ahil-in-oq yashamoqda. Bu butun dunyoga namuna bo'la oladigan

haqiqiy bag'rikenglik muhitidir.

Millatim qirg'iz bo'lishiga qaramay, o'zbek tilida ta'lim oldim, shu tilda xizmat qasamyodini qabul qildim va har kuni fuqarolarimiz bilan shu tilda muloqot qilaman. Xizmat davomida turli millat vakillari bilan to'qnash kelaman, ammo barchamizni yagona Vatan, yagona bayroq va yagona maqsad — shu muqaddas yurtning tinchligi hamda taraqqiyotiga hissa qo'shish tuyg'usi birlashtiradi.

El-yurt tinchligini asrash va xalqimizga halol xizmat qilish — men uchun eng yuksak sharaftir.

Muhammadjon XIDIROV,
katta serjant.

Jizzax viloyati.





Mening millatim rus. Andijon shahrida tug'ilganman. Farg'ona viloyatidagi harbiy litsey va keyinchalik IIV Akademiyasida tahsil oldim. O'zbekiston menga ta'lim-tarbiya berdi, hayotda o'z o'rnimni topishimga yo'l ochdi. Shu bois bu yurt men uchun muqaddas Vatan, oltin beshikdir.

O'ZBEKISTON FARZANDIMAN!

Xizmat faoliyatimni 2009-yilda Andijon viloyati IIB Ekspert-kriminalistika bo'limi eksperti sifatida boshladim. Bugungi kunda Biometrik identifikatsiya qilish guruhi bosh eksperti lavozimida xizmat qilmoqdaman. Kasbimning nozik jihatlarini ustozlarim polkovnik G'ulomjon Rahimov, podpolkovniklar Sergey Nejurin hamda Svetlana Osipovalardan o'rgandim. Ular menga nafaqat kasb sir-larini, balki burchga sadoqat, halollik, intizom va yuksak mas'uliyat bilan xizmat qilish fazilatlarini ham singdirdilar.

Shaxsiy hayotimda ham o'zimni baxtli inson deb bila-man. Turmush o'rtog'im bilan ikki nafar farzandni tarbiyalab kelmoqdamiz. Ular ham shu zaminda ulg'aymoqda, shu yurt havosidan nafas olmoqda. Farzandlarim qalbida Vatanga muhabbat, xalqimizga hurmat tuyg'ularini shakllantirishni o'zimning eng muhim burchlarimdan biri deb bila-man.

Bugun O'zbekistonda mil-latlararo totuvlik va hamji-hatlik shunchaki shior emas, balki hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Turli millat vakillari davlat idoralari, Qurolli Kuchlar va huquqni muhofa-za qiluvchi organlar, ta'lim, tibbiyot, ilm-fan va boshqa sohalarda yelkama-yelka tu-rib, mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligi yo'lida mehnat qilmoqda. Bizni birlashtiruvchi eng ulug' qadriyat – Vatanga muhabbatdir.

O'zbekiston meni bag'riga bosdi, tarbiyaladi, inson si-fatida shakllantirdi. Shuning uchun umrimning oxiriga qadar yurtimiz ravnaqi, xalqimning osoyishtaligi yo'lida fidokorona xizmat qilishni o'zim uchun eng muqaddas burch deb hisoblay-man.

Vyacheslav ZUBAREV, Andijon viloyat IIB EKM Biometrik identifikatsiya qilish guruhi bosh eksperti, podpolkovnik.

HAMJIHATLIK – YURT BOYLIGI

Toshkent shahar Uchtepa tumani IIOFMB huzuridagi Qo'riqlash xizmati ish yuritish guruhi katta ish yurituvchisi, kichik serjant Liliya Shafeyeva mehnat faoliyatini 2006-yili mazkur tizimda erkin yollangan xodim sifatida boshlab, pult operatori lavozimida ishlagan. Keyinchalik ustози — kadrlar bo'limi xodimi Gulzor Sattarovning tavsiyasi bilan kotibiyat xizmatiga shahodatlangan lavozimga o'tgan.



bilan qattiq «x» harflarining qo'lla-nilishigacha yoddan bilaman. Vaqt o'tishi bilan nutqim ham, talaffuzim ham o'zbek tiliga moslashib ketdi, – deydi u.

Kotibiyat boshlig'i, katta serjant Gulya Mustafaulova qo'lida olti oy davomida amaliy tajriba ort-tirgan Liliya Shafeyeva bugun o'zi yosh xodimlarga ustozlik qilmoqda. U har bir hujjatni mukammal yozishga o'rgatadi, kichik xatolarni ham e'tiborsiz qoldirmaydi.

Liliya o'z oldiga yangi maqsad qo'yib, 2022-yilda O'zbekiston Milliy universitetining amaliy psi-xologiya yo'nalishiga o'qishga kirdi. Kelasi yili ikkinchi mutaxassislik bo'yicha diplom olish arafasida.

Tatar millati vakili bo'lgan Liliya Shafeyeva uchun O'zbekiston – tug'ilgan yurt, aziz Vatan. U bugungi kunda Chilonzor mavzesida turli mil-lat vakillari bilan ahil-inoq yashaydi.

– Qo'shnilarimiz orasida o'zbek, rus va boshqa millatlar vakillari bor. Bayramlarimizga bir-birimizni taklif qilamiz. Ular milliy taomlarini, biz o'z taomlarimizni ulashamiz. Nav-ro'z va Mustaqillik bayramlari ham barchamizni birlashtiradi. Ana shu mehr-oqibat va o'zaro hurmat – O'zbekistonning eng katta boyligi, – deydi u.

Adolat FAYZIYEVA, o'z muxbirimiz.

Kotibiyatdagi faoliyatining dast-labki yillarida podpolkovnik Pavel Solomin har bir hujjatga o'ta talab-chanlik bilan yondashardi. Imlo xatosi u yoqda tursin, hatto nuqta yoki vergulning noto'g'ri qo'yilishi ham hujjatning qayta ishlanishiga sabab bo'lardi. Bu talabchanlik Liliya Shafeyevaga aniqlik, mas'uliyat va ish intizomini o'rgatgan haqiqiy hayot maktabi bo'ldi.

– Bugun ortimga nazar tashlasam, o'sha qattiqqo'llik men uchun eng katta saboq bo'lganini anglayman. Hozir o'zbek tilining imlo qoidalariga alohida e'tibor beraman. Hatto «h»

«KO'NA TO'RTKO'L»NING FIDOYI INSPEKTORI

To'rtko'l tumanidagi «Atauba» ovul fuqarolar yig'inida tug'ilib o'sgan Paraxat Taganovning millati turkman. U Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetini tamomlagach, 2007–2008-yillarda muddatli harbiy xizmatni o'tadi. Aynan ana shu askarlik yillari uning qalbida osoyishtalik posboni bo'lishdek ezgu orzuni uyg'otdi.

U tizimdagi ilk faoliyatini To'rtko'l tumani IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmatidan boshladi. 2023-yildan esa huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida faoliyat yuritmoqda.

Joriy yilning may oyida sodir bo'lgan voqea katta leytenant P. Taganovning o'z qasamyodi va burchiga sodiqligini yana bir bor isbotladi.

Ilgari ham ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan M.A. ismli shaxsning mast holda fuqarolar tinchligini buzayotgani haqida xabar tushadi. Voqea joyiga zudlik bilan yetib borgan P.Taganov bezorini tinchlantirib, tegishli hujjatlarni rasmiylashtiradi.

Bir-ikki kun-dan so'ng to'p-langan hujjatlar-ni sudga oshi-rish maqsadida profilaktika inspektori ushbu fuqaro bilan xiz-mat mashinasida yo'lga chiqadi. Ammo rulda bo-rayotgan P. Ta-ganovga M.A. kutilmaganda pichoq bilan tashlanib, unga og'ir jarohat yetkazadi. To'satdan berilgan zarbadan esankirashi-ga qaramay, xodim avtomobilni bezarar to'xtatishga ulguradi.



bosh chiqarib mehnat qilmoqda, – deydi katta leytenant Paraxat Taganov. – Hozirda men xizmat qilayotgan «Ko'na To'rtko'l» ovul fuqarolar yig'inida esa turkman, qoraqalpoq, o'zbek, qozoq va rus millatiga mansub 6 mingdan ortiq aholi totuv yashamoqda. O'zim shu tumanda tug'ilib o'sganim uchun har bir millatning urf-oda-ti va qadriyatlari menga yaxshi tanish.

Bejiz mahallani Vatanning kichik bir timsoliga qiyoslash-maydi. «Ko'na To'rtko'l» ovuli-dagi samimiy munosabatlar va turli millat vakillarining ahilligi yurtimizdagi tinch va bag'rikeng muhit ko'zgu-sidir. Zero, totuv-lik qadrlangan va osoyishtalik ishonchli qo'llarda bo'lgan yurt-ning ertangi kuni, albatta, tinch, farovon va yorug' bo'ladi.

Azamat PIRNIYAZOV, o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.



EL HURMATIDAGI SERJANT

Islom Qosimovning millati tojik. Sirdaryo viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasida qariyb o'ttiz yildan beri faoliyat ko'rsatadi. Barcha bilan qadrdon, aka-uka, hurmati baland. Xovos chegaradosh shaharcha bo'lgani uchun bu yerda tojik millati vakillari salmoqli o'rin tutadi. Ularning udum va qadriyatlarini namoyon etishlari hamda asrab-avaylashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.



– O'zbek va tojik bir el ekani haqidagi mashhur she'rda aytilganidek, biz deyarli bitta xalqmiz, faqat tilimiz boshqa, xolos, – deydi serjant I. Qosimov. Serjant 1997-yildan beri Sirdaryo viloyati TXTB PPX safdor xodimi lavozimida faoliyat ko'rsatadi. U dastlab ish boshlagan payti O'zbekistonda avtosanoatga poydevor yaratilgan davrga to'g'ri keldi. Andijonning Asakasida «O'zDEUavto» zavodining ilk avtomobillari ishlab chiqarilib, viloyatlarda avtosalonlar ochildi. Barchaning ko'zini quvnatadigan zamonaviy avtomobillar, ehtiyot qismlarining butligini saqlash, qo'riqlash, o'g'irliklarning ol-

dini olish zarur edi. Ko'pincha o'g'irlik holatlari avtomobillar poyezdga ortib kelinayotganda sodir etilar edi. Shu bois, yuklarni Andijondan Gulistongacha kuzatib borishga to'g'ri kelardi...

«Daraxt bir joyda ko'karadi» deganlaridek, Islom Qosimov ancha yillar bir lavozimda fidokorona mehnat qildi. Bu kasb undan mas'uliyat, sabr talab etardi. 2022-yilda u Sirdaryo viloyati TXTB PPX xodimi vazifasiga o'tkazildi. Endilikda ishi bekatlarga, temir yo'l bo'ylariga ko'chdi. So'nggi yillarda tezyurar poyezdlar soni ko'paygani sababli magistrallarda xavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratil-yapti. Masalan, bolalarning temir yo'l atrofiga chorva va qo'y-qo'zi boqish holatlari tez-tez kuzatiladi. Serjant bekatlar oralig'ini nazorat qilar ekan, shu kabi xavf-xatarlarning oldini olishni doimo diqqat markazida tutadi. Xovos bekatida yo'lovchilar Islom Qosimovni yaxshi tanishadi. U o'z xizmatini hushyorlik va fidokorlik bilan o'taydi, shu bilan birga, atrofdagilarga ko'mak berishga doimo shay.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

BOLALAR QALBIGA YO'L TOPIB...

Har bir insonning hayot yo'li uning tanlovlari, mehnati va sabr-bardoshi bilan bezaladi. Ayniqsa, huquq-tartibot idoralarida xizmat qilayotgan xotin-qizlar faoliyati ortida yuksak mas'uliyat, matonat va Vatan tinchligiga bo'lgan sadoqat mujassam. Ana shunday fidoyi xodimlardan biri – Samarqand shahar IIOFMB Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi voyaga yetmaganlar bo'yicha inspektor-psixologi, leytenant Genriyetta Bekker.

Rus oilasida tug'ilib, milliy qadriyatlar va mehnatsevarlik ruhida tarbiya topgan Genriyetta hayotini ichki ishlar organlari bilan bog'lashni tanladi.

– Ota-onam meni halollik va insoniylik ruhida tarbiyalashdi, – deydi u. – Ta'lim olishim, til o'rganishim va qo'shimcha mashg'ulotlarga qatnashishim uchun sharoit yaratib berishdi. Ulardan bir umr minnatdorman.

Keyinchalik taqdir uni nemis millatiga mansub Sergey Bekker bilan uchrashtirdi. Mustahkam oila qurgan juftlik bugungi kunda bir-birini tushunib, qo'llab-quvvatlab yashamoqda.

Genriyettaning fikricha, insonning eng katta tayanchi – bu oila.

Genriyettadan nafaqat qonunlarni yaxshi bilishni, balki yoshlar qalbiga yo'l topish, ularning muammolarini tinglash va to'g'ri yo'l ko'rsata olishni, har bir bolaning taqdiriga befarq bo'lmaslikni o'z xizmatining eng muhim jihati deb biladi.

– 19 yillik xizmat faoliyatim davrida birinchi ustozim, iste'fodagi mayor Mehroj Salohiddinov, erkin yollangan xodimlar – Oksana Yuldosheva va Tatyana Maysaklarning his-



sasi katta. Hozirda podpolkovnik Erkin Ahrorovdan sohaviy bilim va ko'nikmalarimni yanada mustahkamlab boryapman. Shuningdek, turmush o'rtog'im va qaynonamning ishonchi, qo'llab-quvvatlashi menga kuch va kuchli motivatsiya beradi, – deydi ofitser.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

Yurtimizning har go'shasida turli hudud vakillarining bir maqsad yo'lida yelkama-yelka xizmat qilayotgani o'lkamizdagi millatlararo totuvlik va birdamlikning yorqin ifodasidir. Qahramonimiz – Urganch shahar IIB HPB profilaktikasi xizmati profilaktika inspektori, leytenant Nadirbek Abdig'aniyev. Qoraqalpog'iston Respublikasining Qorao'zak tumanida tug'ilib o'sgan yosh ofitser bugun Xorazm viloyatida xalq osoyishtaligini ta'minlash yo'lida sidqidildan xizmat qilmoqda.

BIRDAMLIK CHEGARA BILMAYDI



– Siz Qoraqalpog'istonda tug'ilib o'sgansiz. Bugun esa Xorazmda faoliyat olib boryapsiz.

– Ichki ishlar organlari xodimi qayerda xizmat qilishidan qat'i nazar, uning asosiy vazifasi fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Qoraqalpog'iston millatiga mansub bo'lsam-da, Xorazmda xizmat o'tayotganimni menga bildirilgan yuksak ishonch va zimmandagi sharaflari mas'uliyat deb bilaman.

– Boshqa hududda xizmat boshlagan ilk kunlarinigizda moslashish qiyin bo'lganmi?

– Ochig'i, ilk kunlar men uchun biroz murakkab kechdi. Yangi muhit, yangi jamoa va yangi xizmat sharoitiga moslashish biroz vaqt talab qildi. Ayniqsa, mahalliy shevani tushunishda qiynaldim. Biroq hamkasblarimning doimiy yordami, samimiy munosabati va qo'llab-quvvatlashi tufayli bu qiyinchiliklarni oson va tez yengib o'tdim. Bugun esa o'zimni ushbu jamoaning ajralmas bir a'zosi sifatida his qilaman.

– Mahalla aholisi sizni qanday kutib oldi?

– Xizmat olib borayotgan «Mash'al» mahallasi aholisi ochiq ko'ngil va mehnatkash ekan. Ularning ishonchi kishiga yanada mas'uliyat bilan xizmat qilishga kuch bag'ishlaydi.

– Xorazmdagi xizmat davomida millatlararo totuvlik va o'zaro hurmatni qanday his qildingiz?

– Men bu yerda haqiqiy ahillikni his qildim. Eng avvalo, mening qayerdan kelganimga emas, qanday inson va qanday xodim ekanimga e'tibor qaratishdi. Barchaning bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, bag'rikengligi va mehribonligi meni quvontirdi.

Menimcha, ichki ishlar organlari xodimi uchun millat emas, Vatanga sadoqat, qonunga hurmat va xalqqa fidoyilik bilan xizmat qilish muhim. Barchamizning maqsadimiz bitta – yurtimiz tinchligi va xalqimiz osoyishtaligini ta'minlash.

– Xorazm va Qoraqalpog'iston ahlini bir-biriga yaqinlashtiradigan qanday qadriyatlarni ko'rasiz?

– Bu ikki hududda istiqomat qiladigan odamlarni asrlar davomida shakllangan yaxshi qo'shnichilik, do'stlik va qarindoshlik rishtalari bog'lab turadi. Urf-odatlarimiz, mehmondo'stligimiz, kattaga hurmat, kichikka izzat kabi qadriyatlarimiz juda o'xshash. Bizni birlashtiradigan eng katta boylik ham ana shu umuminsoniy fazilatlaridir.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.



Said Jafarov:
«Xalqlar
do'stligi»
qo'shig'i.

Женщина в погонах

ТАМ, ГДЕ НУЖНА ПОМОЩЬ

Есть люди, которые приходят в профессию по воле случая. А есть те, кто с детства точно знают, чему хотят посвятить свою жизнь. Инспектор по вопросам женщин УВД Бектемирского района г. Ташкента старший лейтенант Хуршида Халкулова относится именно ко второй категории. С юного возраста она мечтала носить форму, занималась тхэквондо и стремилась защитить тех, кто слабее.

Службу в органах внутренних дел Хуршида Халкулова начала в 2011 году. За эти годы она приобрела разносторонний опыт. Стремление к знаниям всегда было для нее важной частью профессионального роста, так она в 2023 году получила высшее образование, окончив Академию МВД.

Сегодня Х. Халкулова отвечает за одно из важных направлений деятельности – защиту прав и интересов женщин. Она признается, что именно эта работа оказалась для нее близкой по духу.

Особое преимущество в работе дает то, что Хуршида живет в Бек-

темирском районе с детства. Она хорошо знает его жителей, особенности каждой махаллы, семейную обстановку во многих домах.

– Когда живешь рядом с людьми, которым помогаешь, иначе относишься к своей работе. Ты знаешь семьи, понимаешь их проблемы, видишь изменения и можешь быстрее прийти на помощь, – отмечает инспектор.

Результаты работы говорят сами за себя. Только за шесть месяцев текущего года при содействии коллег было выдано 110 охранных ордеров. Четыре женщины, оказавшиеся в тяжелой жизненной ситуации, направлены в реабилитационный центр, где смогли начать новую жизнь.

Особенно запомнилась история матери с тремя детьми, которая подвергалась домашнему насилию. Хуршида Халкулова лично сопровождала ее на медицинское обследование, а затем помогла оформить в реабилитационный центр. Сегодня женщина вместе с детьми находится в безопасном месте. Инспектор продолжает поддерживать с ней связь.



– Каждый раз она говорит мне: «Спасибо. Благодаря вашей по-

пытывала серьезные материальные трудности. После изучения ситуации ей была оказана материальная и психологическая помощь.

Большое внимание инспектор уделяет молодежи. Одним из эффективных проектов стала инициатива «Тумарис издошлари», благодаря которой девушки могут работать помощниками инспекторов по вопросам женщин, приобретая практический опыт службы в органах внутренних дел.

– Приятно видеть, когда молодежь приходит на службу осознанно. Если своим примером удалось вдохновить хотя бы одного человека, значит, работа приносит результат не только сегодня, но и на будущее, – говорит инспектор.

История Хуршиды Халкуловой – это пример того, как мечта может стать делом всей жизни. За сухими цифрами статистики стоят судьбы женщин, сохраненные семьи, дети, которые получили шанс расти в безопасной обстановке, и молодые девушки, вдохновленные примером своего наставника.

Юлия МУСТАФАЕВА,
соб. корр.

Экологическая безопасность



С ЗАБОТОЙ ОБ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЕ

В рамках Месячника благоустройства, доброты и милосердия в махаллах проводится масштабная работа по уборке и наведению порядка. На местах созданы штабы. Для стимулирования участников инициативы будут определены победители в номинациях «Самая образцовая махалла», «Самый ухоженный дом», «Самый благоустроенный двор» и «Самая благоустроенная улица». «Махаллинские семерки», показавшие наилучшие результаты, будут поощрены.

Особое внимание уделяется территориям, расположенным у железнодорожных путей. Вдоль магистрали Ташкент – Хива расположены 285 махалл, а сама линия пересекает 45 районов. В благоустроительных работах активное участие принимают сотрудники органов внутренних дел. Совместно с «махаллинскими семерками» и экологами они не только подают личный пример в вопросах поддержания чистоты, но и следят за соблюдением экологического законодательства. К правонарушителям, игнори-

рующим требования охраны окружающей среды, применяются строгие меры. Так, с начала текущего года в ходе рейдов 2 779 лиц привлечены к административной ответственности за нарушение правил благоустройства населенных пунктов; 1 653 человека наказаны за выброс мусора из окон транспортных средств.

Ход мероприятий находится под постоянным контролем. В частности, ответственные руководители посетили махаллю Дилкушо города Бухары, махаллю Туткунда Каганского района и махаллю имени Мирзо-Улугбека города Кагана. Было отмечено, что в этих махаллях уже проделана значительная работа по благоустройству и обновлению инфраструктуры. Вместе с тем указано на необходимость своевременного завершения намеченных мероприятий в установленные сроки. Цель – обеспечение чистоты и экологической безопасности.

Улугбек ШУКУРЛАЕВ,
майор.

Бухарская область.

УСИЛЕННЫЕ РЕЙДЫ

Государственная инспекция экологического контроля при Национальном комитете по экологии и изменению климата совместно с правоохранительными органами озвучила промежуточные показатели комплексной проверки.



В ходе рейдов в Ташкенте и Ташкентской области инспекторы зафиксировали факты сброса строительного и бытового мусора в неустановленных местах, а также случаи нанесения вреда зеленым насаждениям.

География инспекций охватила ключевые локации: Юкори-чирчикский, Куйичирчикский, Зангиатинский и Кибрайский районы области, а также Янги-хаётский, Юнусабадский и Сер-

гелийский районы столицы. Схема большинства нарушений оказалась типичной: водители грузовиков, съезжая с официальных маршрутов, выгружали отходы вне отведенных полигонов, создавая стихийные свалки. К виновным применены строгие меры. Оформлено 48 административных протоколов, а сумма наложенных штрафов превысила 316,3 миллиона сумов.

Рафик ЕНИКЕЕВ

► **A worthy example****HONOR AND RECOGNITION**

Honoring veterans of the internal affairs bodies and recognizing their many years of dedicated service and rich professional experience has become a cherished tradition. In this spirit, a ceremonial event was held to celebrate the 80th

Advisor to the minister of internal affairs colonel general Zokirjon Almatov also praised Erkin Norgitov's remarkable career—from an ordinary officer to senior leadership positions—and highly commended his work as chairman of the MIA Council of veterans in educating young personnel in the spirit of patriotism and devotion to duty.

It was noted that today more than 96,000 veterans of the internal affairs bodies continue to pass on their valuable experience to the younger generation, helping to instill dedication and loyalty to service. During the ceremony, a documentary

film about the life and career of Erkin Norgitov was screened. At the conclusion of the event, in accordance with a decree of the President of the Republic of Uzbekistan, sergeant Dilshodbek Yuldashev, senior specialist sniper of the Special deployment battalion of the Tashkent city main DIA, was ceremonially presented with the "Mard O'g'lon" (Brave Son) state award for his exemplary devotion to duty and professional dedication.

Speaking at the event, minister of internal affairs lieutenant general Aziz Tashpulatov congratulated the veteran, highlighting his exemplary life of service to the Homeland and the people, as well as his significant contribution to mentoring generations of officers.

film about the life and career of Erkin Norgitov was screened.

At the conclusion of the event, in accordance with a decree of the President of the Republic of Uzbekistan, sergeant Dilshodbek Yuldashev, senior specialist sniper of the Special deployment battalion of the Tashkent city main DIA, was ceremonially presented with the "Mard O'g'lon" (Brave Son) state award for his exemplary devotion to duty and professional dedication.

► **Results of reforms****A MODERN COMPLEX**

Uzbekistan continues to implement comprehensive reforms aimed at improving the penitentiary system, ensuring the reliable protection of human rights and freedoms, and introducing international standards into the sector. As part of these efforts, a new state-of-the-art administrative building at the Central pre-trial detention center under the Penitentiary department of the Ministry of internal affairs was officially commissioned.

The ceremony was attended by minister of internal affairs lieutenant general Aziz Tashpulatov, heads of law enforcement agencies, and representatives of the public. Participants noted that the new facility represents an important step toward upholding human dignity and ensuring operations in accordance with international legal standards.

The complex provides the necessary legal safeguards and security measures to accommodate persons held in pre-trial detention in full compliance with national legislation. The number of lawyers' consultation rooms has been increased to 50, while the number of investigation rooms has reached 25. Short-term visitation rooms for close relatives have been expanded to 36, significantly reducing waiting times and overcrowding.

In addition, the "E-Mah-kum" information platform and the "Qal'a" intelligent monitoring platform have been integrated into a single system. Information exchange has been established with 25 organizations, and all correspondence with courts and investigative authorities has been fully digitized. The facility has also introduced modern services, including the "Digital Store," "M-billing," and "Video Meeting" systems, providing greater convenience for detainees. The new Central pre-trial detention center marks another significant milestone in the modernization of Uzbekistan's penitentiary system.

► **Children of one Homeland****"THE DEDICATED INSPECTOR OF KUNA TURTKUL"**

Born and raised in the "Atauba" citizens' assembly of Turtkul district, senior lieutenant Parakhat Taganov, who is of Turkmen nationality, graduated from Berdakh Karakalpak State University. He completed his compulsory military service in 2007–2008, and it was during those years that his determination to serve in the internal affairs bodies was firmly shaped.



He began his career in the Security service under the DIA of Turtkul district. Since 2023, he has been serving in the field of crime prevention.

In May of this year, senior lieutenant Parakhat Taganov once again demonstrated his unwavering commitment to duty. After official documents had been prepared against M.A., who had disturbed public order while intoxicated, the offender unexpectedly attacked the officer with a knife while being escorted to court, inflicting serious injuries. Despite the sudden assault, Taganov safely stopped the service vehicle, apprehended the suspect as he attempted to flee, and called for additional support.

— Today, representatives of different nationalities in our country live together in harmony and work side by side for the prosperity of our Homeland, — says Parakhat Taganov. — In the Kuna Turtkul citizens' assembly, where I serve, more than 6,000 residents of Turkmen, Karakalpak, Uzbek, Kazakh, and Russian nationalities live together in peace.

The atmosphere of mutual respect and solidarity in Kuna Turtkul is a vivid example of the interethnic harmony and tolerance that characterize Uzbekistan.

► **An example of humanity****THE DECISIVE DECISION THAT MADE HIM A HERO**

Sometimes a person's life can be changed by a decisive decision made in a single moment. In such situations, quick action and a sense of responsibility can determine the fate of another person.

On July 26 of this year, at around 08:45, the driver of a "Matiz" vehicle traveling along Bunyodkor street in Tashkent approached a road patrol service vehicle for assistance. Inside the car was a seriously ill child who urgently needed to be taken to city hospital №16.

Senior lieutenant Mukhiddin Ulashov, commander of the First mobile group of the Road patrol service unit of the Public order maintenance department under the Chilonzor district DIA of Tashkent city, immediately understood the seriousness of the situation and activated the special sound and light signals of the service vehicle. Thanks to the cooperation of drivers on the road, the traffic jam was cleared, and the child was delivered to the doctors in a short period of time.

The child's father shared the dashcam footage of the incident on social media and expressed his sincere gratitude to the road patrol officer. The video spread widely, and many citizens praised the dedication of the officer, who demonstrated that human life is the highest value.

This event once again proved that heroism is not always shown in extraordinary circumstances; sometimes it appears in everyday life through a timely decision, responsibility, and genuine humanity.

Translated by Munawar RASHIDOVA, docent.

TOMOSHABIN ISHONSA, OBRAZ YASHAYDI

ELGA YOR BO'LSIN

Beg'ubor bolalik yillarimni zavq bilan xotirlayman. Ko'pchilik meni O'zbekiston bulbuli Halima Nosirovaning jiyani ekanimni yaxshi biladi. Ismimni ham ammam «elga yor bo'lsin» degan niyatda qo'ygan ekan. Bolaligim poytaxtimizning «Samarqand darvoza» mahallasida o'tgan. Maktabni bitirish arafasida kinorejissyor bo'lish orzusida Moskvada tahsil olishni niyat qildim. Ota-onam qarorimdan xavotirga tushdi. Ammo ammam meni qo'llab-quvvatladi. «San'at oson yo'l emas. Iste'dod va mehnat bo'lmasa, faqat havas bilan uzoqqa borib bo'lmaydi, — deb maslahat bergan edilar.

MENI SHAKLLANTIRGAN SAHNA MAKTABI

Esimda, O'zbek davlat akademik drama teatri sahnasida ilk bor talabalik davrimda ommaviy sahnalarda ishtirok etganman. Nasib etgan ekan, institutni tamomlaganimdan so'ng meni ham teatr jamoasiga qabul qilishdi. Sahnada o'zini tutish, so'zlash, obraz yaratish, tomoshabin bilan muloqot qilish kabi kasbimizning eng muhim qoidalarini aynan shu yerda o'rgandim. 1987-yildan buyon O'zbekiston davlat drama teatrida xalqimizga san'at orqali xizmat qilib kelyapman.

BIRINCHI MAOSH VA UNUTILMAS DUO

Birinchi maoshim hali-hamon yodimda — 75 so'm olgan edim. Qo'limga pul tekkan kuniyoq bozorga borib, onam va ammamga atab ikkita ro'mol sotib oldim. Uyga borib, hech nima demasdan ro'mollarni ularning yelkalariga tashlab qo'ydim. Ikkalasi galma-gal meni bag'riga bosib qilgan samimiy duolari haligacha yodimda. O'sha duolar menga kuch berdi, yo'limni ochdi va xalq mehriга sazovor bo'lishimda katta ma'naviy tayanch bo'ldi.

MUXLISNING E'TIROFI

Yoshlik — hissiyotlarga boy, orzu va izlanishlar davri. Shu bois dastlab faol, jo'shqin va ehtirosli qahramonlarni ijro etishga qiziqardim. Tomoshabinlar meni Shillerning «Qaroqchilar» tragediyasi orqali tanishgani ham bejiz emas. Vaqt o'tib, hayotiy tajriba ortgani sari murakkab xarakterli, ichki kechinmalari boy obrazlarga qiziqishim kuchaydi. Shu tariqa Otello, Iskandar kabi qahramonlarni sahnada gavdalantirish nasib etdi. «Ko'ngil ko'chalar» videofilmda salbiy obrazni ijro etganimdan so'ng bir muxlisim: «Sizning barcha rollaringizni sevib tomosha qilaman, lekin bu obrazingizni yoqtirmadim», — dedi. Men: «Obrazni yetarlicha ochib bera olmadimmi?» — deb so'raganimda, u: «Aksincha, shu qadar ishonarli chiqqanki, qahramonga nisbatan nafrat uyg'otdi», — deb javob berdi. Bu so'zlar men uchun katta e'tirof bo'ldi. Chunki aktyorning vazifasi faqat ijobiy qahramonlarni ko'rsatish emas, balki har qanday obraz orqali tomoshabinni o'ylantirish, unda hissiyot uyg'otishdir.

«Bir fojia izidan» videofilmdagi yosh leytenant O'rozov roli ham ijodiy yo'limda muhim o'rin tutadi. Bu obraz tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olindi. Hatto shu

Teatr va dublyaj san'atida ko'p yillik samarali ijod qilib, milliy madaniyatimiz rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan O'zbekiston xalq artisti, «Do'stlik» va «Mehnat shuhrati» ordenlari sohibi, O'zbekiston davlat drama teatri aktyori Elyor Nosirov sahifamiz mehmoni bo'ldi. Ustoz san'atkor bilan suhbatimiz teatr, dublyaj, ijodiy yo'l, hayotiy saboqlar va ma'naviy qadriyatlar haqida kechdi.



roldan keyin ichki ishlar organlarida xizmat qilishga taklif ham bo'lgan. Ammo men o'z kasbim — san'at yo'lini tanladim.

Bu obraz bilan bog'liq bir voqea haligacha yodimda. Bir kuni Shayxontohur tumani IIBga borganimda, u yerdagi xodim xayrlashish oldidan: «Elyor aka, bolaligimda siz ijro etgan leytenant O'rozov obrazini ko'rib ulg'ayganman. Aynan shu rol menda ichki ishlar organlarida xizmat qilish orzusini uyg'otgan», — dedi. Demak, yaratgan obrazingiz nafaqat tomoshabinni ta'sirlantiradi, balki uning hayot yo'ligha ham ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatishi mumkin.

SAN'ATNING HAQIQIY QIMMATI

Teatrning eng katta vazifasi — inson qalbiga yo'l topish. Shunday spektakllar bo'lganki, ulardan keyin odamlar hayotiga boshqacha nazar bilan qaragan, hatto oilalarini saqlab qolgan, to'g'ri yo'lga qaytgan holatlar ham uchragan. Tomoshabin ko'rgan spektakli haqida o'ylab chiqsa, qalbida qandaydir o'zgarish bo'lsa, san'atning haqiqiy qimmati ana shunda. Haqiqiy san'at, ayniqsa, teatr insonni tarbiyalaydi, o'ylashga undaydi. Chunki teatr — bu jonli ijro. Unda aktyor va tomoshabin o'rtasida muloqot bo'ladi. Bugun texnologiyalar, sun'iy intellekt rivojlanyapti. Men bu sohalarini chuqur bilmasam-da, bir narsaga ishonaman: qancha vaqt o'tmasin, inson baribir jonli muloqotga, san'atga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun teatr yashaydi.

Shu o'rinda bir voqeani aytay. «Otello» spektaklida bosh qahramon rolini ijro etayotgan edim. Eng ta'sirli sahna ko'rinishi paytida zalda bir onaxonning uyali telefoni jiringlab qoldi. Vaholanki, har bir spektakl oldidan telefonlarni o'chirish haqida eslatib o'tiladi. Onaxon baland ovozda: «Ha, teatrdaman... mayli, moshkichiri qilib qo'y», — dedi. O'sha paytda sahnada Otelloning dardi bilan yashab turgan edim. Albatta, bunday holatdan xafa bo'ladi odam. Bu faqat aktyorga emas, butun teatrga bo'lgan hurmatsizlikdir.

QALBLARNI TITRATGAN MONOLOG

1991-yilda «Iskandar» spektaklini sahnalashtirayotganimizda, final sahnasi hali to'liq shakllanmagan edi. Bir kuni ishga kelsam, qorovul: «Bahodir aka sizni kutyaptilar», — dedi. Ustoz Bahodir Yo'ldoshevning xonasiga kirsam, stoli ustida bir varaq qog'oz turibdi. «O'qix», — dedilar. Qarasam, Iskandarning onasiga yozgan so'nggi maktubi ekan. O'qiy boshladim. Ammo yarmiga yetganimda davom ettira olmadim. Tomog'imga bir narsa tiqilib, ko'zlarimga yosh keldi. «O'qiy olmayman», — dedim. Ustozim esa qat'iylik bilan: «O'qiysan. Onang uchun o'qiysan. Mening onam uchun, barcha onalarimiz uchun o'qiysan», — dedilar. Monologda Iskandar dunyoni zabt etgan buyuk sarkarda bo'lsa-da, hayotining oxirida eng oddiy, ammo eng muhim haqiqatni angelaydi: inson uchun eng katta boylik shon-shuhrat yoki hokimiyat emas, balki ona mehri, uning duosidir. «Butun dunyoni oldim, buning o'rniga onajonimga xizmat qilsam bo'lmasmidi?» — degan mazmundagi alamlı so'zlar Iskandarning ichki kechinmalarini ochib beradi. U jahongir sifatida emas, ona mehriга zor farzand sifatida namoyon bo'ladi. Monologni tomoshabinlar har safar go'yoki nafas olmay, qalblari titroqqa tushib tinglashadi.

DUBLYAJ — OVOZ BERISH EMAS, OBRAZ YARATISH SAN'ATI

Meni dublyajga 1975-yillar atrofida ustozim Hojiakbar aka Nurmatov olib kirgan. Har kim ham dublyaj aktyori bo'la olmaydi. Kimningdir ovozi chiroyli bo'lishi mumkin, ammo ekrandagi obrazga jon baxsh etish uchun buning o'zi yetarli emas. Dublyajda aktyor ekrandagi qahramonning ruhiyatini, nafasini, kayfiyatini his qilishi kerak. Ba'zan ekrandagi aktyor obrazni to'liq ocha olmasligi mumkin. Ana shunday paytda mahorati baland dublyaj aktyori uning kamchiligini to'ldirib yubora oladi. Dublyajning kuchi ham shunda.

Bizga ustozlar juda qattiq talab qo'yardi. Afsuski, bugun ana shu talab ancha susaygan. Ilgari bilim va tajriba ustozdan shogirdga o'tardi. Bugun esa ba'zan bu

sohaga tayyorgarliksiz kirib kelayotganlar ham uchraydi. Vaholanki, dublyaj mahorati bir kunda shakllanmaydi. Bu yillar davomida yig'iladigan tajriba. Eng muhimi, dublyaj aktyori adabiy til me'yorlarini, talaffuz va nutq madaniyatini mukammal bilishi shart. Ana shundagina tomoshabin qalbidan joy oladigan haqiqiy dublyaj yaratiladi.

MA'NAVIY QADRIYATLARIMIZNI ASRAYLIK

Biz boshqacha muhitda ulg'ayganmiz. «Bir bolaga yetti mahalla ota-ona», — degan gap shunchaki aytilmagan. Haqiqatan, qo'shni mahalladagi odam ham qaysi xonadonning farzandi ekaningizni bilar, kerak bo'lsa tanbeh berar, mehrini ham ayamasi. Oila davrasida barcha jam bo'lib, bir dasturxon atrofida ovqatlanar, keyin uzoq suhbatlar bo'lardi. Buvi va bobolarimiz halollik, insof, diyonat, kattaga hurmat, kichikka izzat haqida ko'p nasihat qilardi. O'sha suhbatlar bizning tarbiyamizga, dunyoqarashimizga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Balki, u paytlarda televizor, kompyuter va telefonlar bu qadar hayotimizga kirib kelmagani uchun ham kattalar bilan ko'proq muloqot qilardik, ularning hayotiy tajribasidan bahramand bo'lardik. Bugun esa hayot tezlashdi. Afsuski, ayrim yoshlar orasida tezroq boyish istagi kuchayib bormoqda. Yaxshi yashashga intilish tabiiy, lekin buning asosida halol mehnat, insof va vijdon turishi kerak. Halol rizqning barakasi ham, qadri ham bo'ladi.

ENG KATTA OMAD — OILAM

Hayotda ham, san'atda ham omadli bo'lish mumkin. Shaxsan men o'zimni ana shunday baxtga erishgan insonlardan biri, deb hisoblayman. Mening eng katta omadim — oilam, meni har jihatdan tushunadigan rafiqam va farzandlarim. Inson uchun uning kasbini, mas'uliyatini anglaydigan, sabrli va qanoatli turmush o'rtog'ining bo'lishi katta baxt. Menga ham shunday umr yo'ldoshi nasib etgan. Turmush o'rtog'im Mukarramxon farzandlarimizni tarbiyalab voyaga yetkazishda mendan ham ko'proq mehnat qildi, desam mubolag'a bo'lmaydi. San'atkorlik kasbi ko'p vaqt va safarlarni talab qiladi. Shuning uchun oilamning tinchligi va farovonligida rafiqamning his-sasi beqiyos. Bugun esa nabiralarimizning bobo va buvisi sifatida ularning mehrini ko'rib yashayapmiz. Bu ham Yaratgan ato etgan eng katta baxtlardan biri.

HAR BIR XODIM UYIGA SOG'-OMON QAYTSIN

Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmati naqadar mashaqqatli, zimmasidagi mas'uliyat esa qanchalik ulkan ekanini juda yaxshi his qilaman. Bugungi tinch va osuda hayotimiz, xotirjam tunlarimiz aynan shu kasb egalari fidokorona xizmati samarasidir. Ayniqsa, xizmat postida sobitqadam turgan yigitlarimizning bilagi baquvvat, irodasi mustahkam bo'lsin. Eng katta tilagim — ular qo'lidagi qurolni faqat o'quv mashg'ulotlarida ishlatishsin. Xizmatga otlangan har bir xodim o'z oilasi bag'riga sog'-omon qaytib kelsin.

Adolat FAYZIYEVA yozib oldi.



Ustozlar nasihatlar

Ustoz-shogird an'anasi – kasbga mehr, burchga sadoqat, qonunga hurmat hamda xalq ishonchiga munosib bo'lishdek yuksak fazilatlarini yosh avlod qalbiga singdiradigan hayot maktabi. Ayniqsa, inson taqdiri, qonun ustuvorligi va adolat mezonlari bilan chambarchas bog'liq tergovchilik faoliyatida bu an'ananing o'рни va ahamiyati beqiyos.

Toshkent viloyati IIBB Bekobod shahar IIB huzuridagi tergov bo'linmasi katta tergovchisi, podpolkovnik Bahor Jumanova tizimda qariyb yigirma yildan buyon sidqidildan xizmat qilib kelyapti. U o'n besh yillik tergovchilik faoliyati davomida ko'plab murakkab va og'ir jinoyat ishlarini qonun talablari asosida xolis, puxta va adolat mezonlariga qat'iy rioya etgan holda tergov qildi. Fuqarolarning huquq-manfaatlarini ishonchli himoya qilish hamda qonun ustuvorligini ta'minlashga qo'shgan munosib hissasi tufayli

ADOLATGA YO'G'RILGAN AN'ANA



hamkasblari va jamoatchilik orasida hurmat-e'tibor qozondi.

Biroq haqiqiy ustozning eng katta yutug'i faqat xizmatdagi muvaffaqiyatlari bilan emas, balki ortidan munosib izdoshlari yetishib chiqishi bilan ham belgilanadi. Lavhamiz qahramoni o'zining boy tajribasi va kasbiy bilimlarini yosh xodimlarga o'rgatib kelmoqda. O'tgan yildan buyon Bekobod shahar IIB huzuridagi tergov bo'linmasi tergovchisi lavozimida xizmat qilayotgan leytenant Bunyod Donishov ustoz-shogird an'anasi asosida unga birlashtirildi. Xizmatning ilk kunlaridanoq podpolkovnik Bahor Jumanova yosh ofitserni tergov faoliyatining eng nozik va mas'uliyatli jihatlari bilan yaqindan tanishtirdi. Jinoyat sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, dalillarni qonuniy tartibda yig'ish va baholash, protsessual hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish, fuqarolar bilan muloqot mada-

niyati hamda har bir qarorni puxta tahlil qilish kabi muhim jarayonlarda unga amaliy saboq berdi.

Ustozining talabchanligi, jo'yali maslahatlari va amaliy ko'rsatmalari tufayli Bunyod Donishov joriy yilning o'tgan olti oyi davomida 80 dan ortiq jinoyat ishi bo'yicha tergov harakatlari olib bordi. Natijada 35 ta jinoyat ishi yuzasidan qonuniy qaror qabul qilinishi uchun materiallarni jinoyat ishlari bo'yicha shahar-tuman sudlariga yubordi. Bugun u har bir qaror ortida inson taqdiri, jamiyat ishonchi mujassam ekanligini chuqur anglagan holda faoliyat yuritmoqda. Zero, ustozlardan olingan saboq kelajakda adolat tantanasiga xizmat qiladigan mustahkam poydevordir.

Dilrabo ABDUHAMIDOVA,
mutaxassis-muxbir,
katta leytenant.

Toshkent viloyati.

Mulohaza

SAYOHATGA
TAYYORMISIZ?

Sayohat haqida gap ketganda ko'pchiligimizning ko'z oldimizga uzoq mamlakatlar, qimmat aviachiptalar yoki hashamatli mehmonxonalar keladi. Shu bois «Hali vaqt bor», «Pul jamg'aray», «Bir kuni, albatta, boramiz» degan bahonalarni o'zimiz ham sezmaganda hayotimizga singdirib yuboramiz. Aslida sayohat uchun eng muhimi pul yoki uzoq manzillar emas, hamrohlar zarur. Shu ma'noda, oilaviy sayohat – bu kundalik tashvishlar changi qoplagan mehr ko'zgusini qayta artmoq, bir xonadonda yashab turib ham aytib ulgurilmagan gaplarni dildan-dilga ko'chirish imkoniyatidir.

NEGA OILAVIY
SAYOHAT MUHIM?

Hozirgi shiddatli hayotda vaqt eng qimmat boylikka aylanib bormoqda. Biz pul topish uchun vaqt sarflaymiz, ammo ba'zan vaqt ajratish kerak bo'lgan insonlardan uzoqlashib qolamiz. Vaholanki, farzandlarimiz uchun eng qimmat sovg'a yangi telefon yoki qimmatbaho o'yinchoq emas, balki ota-onasi bilan birga o'tkazilgan baxtli lahzalardir.

Uyda ko'pincha suhbatlarimiz kundalik mavzular atrofida aylanadi: «Darsingni qildingmi?», «Ovqatlan-dingmi?», «Qachon kelasan?». Sayohatda esa insonlar bir-birini qayta kashf etadi. Birgalikda tomosha qilingan quyosh chiqishi, tog' bag'rida ichilgan bir piyola choy yoki yo'ldagi oddiy kulgi ham yillar o'tib qadrlil xotiraga aylanadi.

Mutaxassislar fikricha, tabiat qo'ynida o'tkazilgan vaqt inson ruhiyati uchun eng yaxshi dam olish vositalaridan biri ekan. Chunki tabiat inson qalbini ortiqcha shovqinlardan tozalaydi, oila a'zolarini esa bir-biriga yaqinlashtiradi.

TARBIYANING
JONLI DARS

Kitob bilim beradi, hayot esa tajriba. Sayohat ana shu ikkisini birlashtiruvchi noyob maktabdir.

Bola tarixiy obidalarini ko'rar ekan, o'tmishini anglaydi. Tog'lar bag'rida yurar ekan, tabiat qudratini his qiladi. Yangi insonlar bilan uchrasharkan, muomala madaniyatini o'rganadi. Eng muhimi, hayot maktabining ayrim saboqlarini hech qaysi darslikdan topib bo'lmaydi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, sayohat davomida ota-ona va farzand o'rtasidagi mehr rishtalari yanada mustahkamlanadi. Chunki birga bosib o'tilgan yo'l, birgalikda yengilgan qiyinchilik insonlar qalbini bir-biriga bog'laydi. Bunday lahzalar farzand qalbida: «Mening oilam – mening qo'rg'onim» degan ishonchni shakllantiradi.

Bolalar juda tez ulg'ayadi. Bugun siz bilan toqqa chiqib, kapalak quvib yurgan o'g'lingiz ertaga katta yigit bo'lib, o'z ishi bilan band bo'lib qoladi. O'shanda siz pulingiz ko'pligini emas, balki vaqtida u bilan mazza qilib dam olganingizni qo'msaysiz.

XOTIRALAR XAZINASIDAGI OLTIN



Agar oilaviy sayohatga chiqishga qaror qilgan bo'lsangiz, quyidagi oddiy qoidalarga amal qiling:

– Agar mablag'ingiz yetmasa, uzoqqa borish shart emas. Yaqin hududdagi chiroyli boqqa yoki toqqa chiqing. **Muhimi – birga bo'lish.**

– Bolalarning fikrini tinglang. «Qayerga boramiz? Yegani nima olamiz?» deb ulardan ham so'rang. Bu ularga mas'uliyat hissini beradi.



– Biroz muddat gadgetlardan uziling! Hech bo'lmasa bir kun ijtimoiy tarmoqlardan uzoqlash-ing, dam oling. Farzandingiz bilan ko'proq gaplashishga vaqt ajrating.

– Birgalikda mehnat qiling. Unutmang, tabiat qo'ynida birgalikda ovqat qilish yoki dasturxon yozish oilani juda yaqinlashtiradi!

Oilaviy sayohat – bu xotiralar xazinasiga qo'yilgan oltindir. Uning qiymati yillar o'tgan sari faqat oshib boradi. Shunday ekan, kelasi dam olish kunini uyda, divanda yotib emas, yaqinlaringiz bilan, deylik, tog'da, bahavo va so'lim go'shada o'tkazing. Chunki baxt uzoq manzillarda emas, birga bosilgan yo'llarda yashaydi.

Feruza RAHMONQULOVA

Kinologiya

XIZMATDAGI YAQIN YORDAMCHILAR

Xo'jayli tumani IIBga fuqaro Z.Y. ariza bilan murojaat qilib, xonadonidan ikki bosh qoramoli o'g'irlab ketilganini ma'lum qildi. Voqea joyiga tezkor-tergov guruhi bilan yetib borgan kichik inspektor-kinolog, safdor A.Yerniyazov «Lora» laqabli xizmat iti bilan qidiruvga kirishdi. «Lora»ning sezgirligi va iz olish qobiliyati tufayli gumonlanuvchilar yashaydigan hudud tezda aniqlanib, ular qo'lga olindi.

Ma'lum bo'lishicha, o'g'rilikni 2001 va 2002-yillarda tug'ilgan ikki yigit sodir etgan. Ular onlayn qimor o'yinlari tufayli qarzga botib, jinoyatga qo'l urgan ekan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi tomonidan hududda jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilarni xizmat itlari ishtirokida fosh etish borasida diqqatga sazovor ishlar olib borilmoqda.

Hozirda bo'linmamiz ixtiyorida 31 bosh xizmat iti mavjud bo'lib, ularning 20 tasi iz-qidiruv, qolganlari esa giyohvandlik vositalari hamda portlovchi moddalarni qidirib topish yo'nalishlari bo'yicha xizmatga tayyorlangan.

Joriy yil boshidan buyon bo'linma hamda uchta mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi kinologlari xizmat itlari bilan birga 147 marotaba jinoyat joylariga chiqishdi. Natijada 49 ta

jinoyat aynan to'rt oyoqli yordamchilar ko'magida «issiq izida» ochildi. Bu ko'rsatkichlar tahlil qilinda, ularning 40 tasi o'g'rilik, 7 tasi giyohvandlik va 2 tasi boshqa turdagi jinoyatlar ekanini ko'rish mumkin.

Mana yana bir misol. Nukus shahrining 61-kichik dahasida avtomashinadan pul va hujjatlar o'g'irlangani bo'yicha olib borilgan tezkor tadbirida kichik inspektor-kinolog, safdor Z.Muyaddinov o'zining «Leo» laqabli xizmat iti bilan ishtirok etdi. «Leo»ning to'g'ri yo'nalish ko'rsatishi natijasida o'g'ri ko'p o'tmay ushlandi. Dastlabki surishtiruv jarayonida muqaddam sudlangan ushbu shaxsning boshqa bir nechta o'g'rilik jinoyatlariga ham aloqadorligi fosh bo'ldi.

Xodimlarimiz aeroport va temiryo'l vokzallarida fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, giyohvandlik vositalari, portlovchi moddalar,



qurol-yarog' va o'q-dorilarning no-qonuniy aylanmasiga chek qo'yish yo'nalishida ham faol xizmat olib borishyapti. Bundan tashqari, ular joylarda huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadidagi piyoda patrullik hamda ommaviy-madaniy tadbirlarda jamoat tartibini saqlashga munosib hissa qo'shib kelishmoqda.

Albatta, yuqori ko'rsatkichlarga erishishda xodimlar va xizmat itlarining professional tayyorgarligi o'ta muhim. Shu bois yaqinda 7 nafar xodimimiz o'z itlari bilan Xorazm

viloyatida o'tkazilgan iz-qidiruv yo'nalishidagi mintaqaviy sayyor o'quv yig'inida ishtirok etib, malaka oshirib qaytdi. Shuningdek, Nukus shahridagi xizmat itlari pitomnigida reja asosida tashkil etilayotgan o'quv kurslarida ham joylardagi soha vakillari o'z kasbiy mahoratlarini muntazam oshirib bormoqdalar.

Ruslan UTEULIYEV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV
JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi
boshlig'i, podpolkovnik.

Yo'l qoidasi – umr foydasi

OROMGOHLARDA TARG'IBOT TADBIRLARI

Navo'iy viloyatining Karmana tumanidagi «Oftobjon», «Ishonch», Navbahor tumanidagi «Sarmish», «Shabboda» kabi yozgi oromgohlarda «Yo'l harakati qoidalari» bo'yicha targ'ibot ishlari olib borildi. Tadbirlarda bolajonlarga yo'llarda xavfsiz harakatlanish, piyoda, yo'lovchi va velosipedchilarning majburiyatlari tushuntirildi. Yo'l belgilari, tartibga soluvchi yo'l chiziqlari talablariga va svetofoarning ishoralariga qat'iy rioya qilish lozimligi uqtirildi.



Ayniqsa, velosipedni jihozlash, xavfsiz manyovrlarni amalga oshirish, avtomobil yo'llarida mas'uliyatli bo'lish kerakligiga alohida urg'u berildi. Haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lmasdan turib transport vositasini boshqarmaslik, o'zboshimchalik bilan avtomashinadan tana qismini chiqarmaslik, yo'lining qatnov qisimidan kesib o'tishda hushyorlikni yo'qotmaslik darkorligi aytilib o'tildi.

Bolalar o'rtasida muntazam ravishda yo'l harakati xavfsizligi borasida tushuntirish ishlarini olib borish kelgusida madaniyatli harakat ishtirokchilari qatlami shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun tizimli ravishda soha vakillari bilan hamkorlikda profilaktik ishlar amalga oshirilmoqda. Suratlar tanlovi, profilaktik suhbatlar, turli uslubiy qo'llanmalar hamda tarqatila-yotgan bukletlar samaradorlikni yanada oshiradi. Muhimi, bolajonlar maroqli hordiq chiqarish bilan bir qatorda yo'llarda xavfsiz harakatlanish bo'yicha bilimlarini ham mustahkamlashadi. Bu esa ota-onalarning ham ko'nglini xotirjam qilishi aniq, – deydi Navoiy shahridagi 18-sonli maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari Jamila Isamova.

Tadbir davomida bolalar guruhlarining xavfsiz harakatlanishlari borasida amaliy o'quv mashg'ulotlari ham o'tkazildi.

Farruh YAKUBOV,
Navoiy viloyati IIB JXX YHXB
Axborot guruhi katta mutaxassisi, mayor.

Salomatlik

SEMIZLIK VA GIPODINAMIYA –
ASR KASALLIGI

Semirishga olib keluvchi omillar orasida birinchi navbatda ovqatlanish me'yorlariga amal qilmaslik hamda kamharakatlik yotadi. Kamharakatlik, muttasil ravishda asab ruhiy holatining zo'riqib ishlashi, jismoniy hordiqsiz surunkali charchash, organizm faoliyatining buzilishiga, mehnat qobiliyatining pasayishiga, barvaqt qarishga sabab bo'ladi. Kamharakatlik turmush tarzida yashash organizmning zahiraviy imkoniyatlarini kamaytiradi. Tana a'zolari faoliyatiga – mushaklar, ichki a'zolar, skelet, ayniqsa, markaziy asab tizimi faoliyatiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Faoliyatsizlik oqibatida qondagi eritrotsitlar soni kamayadi, yog' to'qimasining qalinlashuvi kuzatiladi, suyaklar mo'rt bo'lib qoladi, to'qimalarning kislorodni o'zlashtirish qobiliyati pasayadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, ayrim odamlarning o'zini avaylashi, jismoniy mehnat va faollikdan qochishga intilishi bilan o'z salomatliklari katta zarar keltirayotganliklarini anglamaydilar. Holbuki, faqat serharakatlik, jismoniy faollik, turli xil jismoniy faoliyat turlari bilan mashg'ul bo'lish tufayli har bir kishining o'z salomatligi uchun olishi mumkin bo'lgan foydani boshqa hech qanday vosita, jumladan, dori-darmonlar yordamida olib bo'lmaydi. Faqat jismoniy faollikgina organizmning zahiraviy imkoniyatlarini safarbar qila oladi.

Ortiqcha vaznga ega bo'lgan inson 40 yoshga to'lgandan keyin uning organizmida modda almashinuvi jarayonlarining buzilishi bilan kechadigan bir qator og'ir kasalliklar paydo bo'ladi. Semirish kasalligiga muhtalo bo'lganlarda qon tomirlari aterosklerozi 2 marta, qon bosimi oshuvi 3 marta, qandli diabet kasalligi 4 marta, o't-tosh kasalligi 6 marta, polioosteoartroz 4 marta, podagra 3 marta, venalarning varikoz kengayishi 2–3 marta ko'p uchrashi aniqlangan.

Gipodinamiya – jismoniy kam harakat holati, ilmiy texnika taraqqiyoti oqibati bo'lib, odamlarning jismoniy harakatga bo'lgan ehtiyojini kamaytirishga olib keldi. Gipodinamiya, o'tirib ishlash tarzi, shuningdek, bo'g'im va bog'lamlar, umurtqa pog'onasi osteoxondrozlar, radikulitlar va boshqa turli xil mushak kasalliklarning o'sishiga olib kelyapti. Vaziyatdan chiqishning yo'lini, albatta, jismoniy faol bo'lishdan, sport mashg'ulotlari, gigiyenik gimnastikadan izlash kerak. Xalq ichida yuruvchi «Uzoq umr ko'ray, desang, ko'proq harakat qil» degan maqol bejiz aytilmagan. Ortiqcha ovqat iste'mol qilish, sarflanayotgan energiya miqdori bilan organizmga tushayotgan ovqat miqdori o'rtasidagi salbiy tafovut tana vaznining ortishiga – semirishga olib keladi. Semirish – bu kasallik holati bo'libgina qolmasdan, ayni paytda ko'plab boshqa kasalliklarni tug'diruvchi xavf omili hamdir. Semirish keng tarqalgan kasallik bo'lib, aholining 25–30 foizi unga muhtalodir.

Semirishning sabablarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda uning asosida insonlarning o'z organizmi jismoniy ehtiyojlari talabiga qaraganda ko'proq ovqat iste'mol qilishdek zararli odatlari yotadi. Oqibatda tananing ortiqcha vaznga ega bo'lishi va semirish modda almashinishning murakkab jarayonlari orqali aterosklerozi, yurak-qon tomir kasalliklari, arterial qon bosimining oshuvi, endokrin tizimi kasalliklari – qandli diabet, immunologik va ruhiy holat kasalliklari va boshqalarning avj olishiga sabab bo'ladi.

Semirishga olib keluvchi qovurilgan, dudlangan va konserva mahsulotlarida turli xil kanserogen moddalar borligi diqqatga sazovordir. Hayvon yog'lari, go'sht mahsulotlariga termik qayta ishlov berish jarayonida bir qator kanserogen va mutagen moddalar hosil bo'lishi aniqlangan. Shu sababli, tarkibi qo'pol klechatkali moddalarga boy mahsulotlarni ko'proq iste'mol qilish foydalidir. Bular qatoriga karam, olma va boshqa meva-sabzavotlar, yorma, un kabilar

kiradi. Bu mahsulotlar ichaklardagi hazm bo'lgan ovqat chiqindilarni tezroq chiqarishga olib keladi. Shu narsani unutmaslik lozimki, sho'r va ortiqcha tuzlangan hamda achchiq mahsulotlar, qovurilgan va dudlangan mahsulotlar, nitrat va nitritlar, o'z vaqtida ovqatlanmaslik, vitamin S va E yetishmasligi, ovqatni yaxshi chaynamasdan yutish, alkogol, ortiqcha ovqat yeyish, oshqozon rakiga olib kelsa, yog'li va qovurilgan ovqatlar, kam kletchatkali ovqatlar, marinadlar va boshqa o'tkir ovqatlar yug'on ichak rakining sababchilaridir.

Semirish va gipodinamiyaning oldini olish hamda davolashning birdan-bir yo'li – bir tomondan, energetik qiymati va tarkibi jihatidan organizm ehtiyojiga mos va rasional ovqatlanish bo'lsa, ikkinchi tomondan, mehnat qila bilish va dam olish san'atidir.

Ulug'bek NADIROV,
Sirdaryo viloyati IIB Tibbiyot
bo'limi boshlig'ining o'rinbosari,
leytenant.

Voha sirlari

SHIFO VA LAZZAT UYG'UNLIGI

Xorazmda keksalar «Ovqat bo'lsa, dori kerak bo'lmaydi», deyishi bejiz emas. Chunki voha dasturxonidagi ko'plab taom turlari shunchaki qorin to'ydirish uchun emas, inson salomatligini asrash uchun ham yaratilgan. Xorazm pazandachiligi ming yillar davomida shakllangan xalq tabobati, ilm-fan va hayotiy tajribaning uyg'unlashgan namunasi, ajdodlardan qolgan bebaho merosdir.

Buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniyning «Saydana» asari, Abulg'azi Bahodirxonning «Manofe'ul-inson» risolasi hamda Ma'mun akademiyasi davrida faoliyat yuritgan tabiblarning qarashlari voha taomlarining shakllanishida muhim o'rin tutgan. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sino tavsiya etgan parhez taomlar keyinchalik xalq oshxonasining ajralmas qismiga aylangan. Masalan, yil oshgan sariyog', oq piyoz va sariq sabzi qo'shib tayyorlanadigan ayrim taomlar yurak faoliyatini qo'llab-quvvatlov-

chi parhez sifatida tavsiya etilgan. Demak, ajdodlarimiz taomning ta'migagina emas, shifobaxsh xususiyatiga ham katta e'tibor bergan.

Biroq o'tgan asrning 70-yillarida paxta yakka-hokimligi vohaning qadimiy dehqonchilik madaniyatiga jiddiy zarar yetkazdi. Kimyoviy ishlovlar ortishi oqibatida ko'plab dorivor o'simliklar va mahalliy ekin turlari kamayib ketdi. Ular bilan birga go'ja, bulamiq, ishlama, jugari kurdik, chalpak va shivit oshi kabi servitamin milliy taomlar ham kundalik das-

turxondan siqib chiqarildi. Mustaqillik yillarida esa bu bebaho merosni qayta tiklash yo'lida muhim ishlar amalga oshirildi.

Unutilgan taomlar bugun yana dasturxonga qaytayotgani esa nafaqat milliy qadriyatlarni tiklash, balki sog'lom ovqatlanish madaniyatini rivojlantirishga ham xizmat qilmoqda. Xorazm taomlarining yana bir o'ziga xos jihati shundaki, ular vohaning iqlimi va odamlar turmush tarziga mos ravishda shakllangan. Masalan, osma sho'rva, moshova, go'ja va baliq sho'rva tarkibidagi oqsil,



yog' hamda uglevodlar nisbati organizm ehtiyojiga mos keladi. Shivit oshi yozning jazirama kunlarida organizmni vitamin va mineral moddalarga boyitadi. Jo'xori unidan tayyorlanadigan bulamiq va siqmon esa kuch-quvvatni tiklash hamda moddalar al-

mashinuvini me'yorlashtirishga yordam beradi.

Balki xorazmliklarning uzoq umr ko'rish siri ham aynan ana shu tabiiy, me'yorli va oqilona ovqatlanish an'analaridadir. Ularni davom ettirish esa kelajak avlodning ham sog'lom va baquvvat bo'lishiga hissa qo'shadi.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.



«POSBON» – MUTLAQ CHEMPION



Huquqni muhofaza qilish organlari va harbiy tuzilmalar faxriylari o'rtasida sportning futbol turi bo'yicha «Ichki ishlar vaziri kubogi» nihoyasiga yetdi. Unda jami 10 ta jamoa ishtirok etib, g'oliblik uchun murosasiz kurashdilar. Musobaqa yakunida «Gvardiyachi» (MG) va «Qutqaruvchi» (FVV) jamoalari 3-o'rin uchun kurashib, 2:1 hisobida «Gvardiyachi»lar g'olib bo'ldi.

IIV faxriylarining «Posbon» hamda PDXX va DXX faxriylaridan iborat «Jasorat» jamoalari ishtirokida o't-

gan final o'yini ham g'oyat qizg'in kechdi.

Finalda 2:0 hisobida «Posbon» jamoasi g'alaba qozonib, «Ichki ishlar vaziri kubogi» sohibiga aylandi.

Futbol bayramida IIV Ashula va raqs ansambli xonandalarining chiqishlari barchaga yuqori kayfiyat bag'ishladi.

Musobaqaning g'olib va sov-rindorlariga IIV rahbariyati hamda Futbol Assotsiatsiyasi mas'ullari tomonidan mukofotlar topshirildi.

Abu KENJAYEV

QIZLARIMIZ G'OLIB

Tojikiston Respublikasida bo'lib o'tgan «CAFA U-20 Women's Championship 2026» musobaqasida Viktoriya Sirota boshchiligidagi O'zbekiston U-20 terma jamoasi chempionlikni qo'lga kiritdi.

Terma jamoamiz musobaqa davomida Qirg'iz Respublikasi (1:0), mezbon Tojikiston U-20 terma jamoalarini (7:0) mag'lub etib, Eron U-20 terma jamoasiga qarshi 1:1 hisobida durang o'ynadi.

Musobaqa yakuniga ko'ra, O'zbekiston U-20 ayollar terma jamoasi «Fair Play» sovriniga ham ega chiqdi. Shuningdek, Shahnoza Dekanboyeva turnirning eng yaxshi futbolchisi, Shahzoda Alixonova esa musobaqaning eng yaxshi to'purari deb topildi.

Shu tariqa O'zbekiston U-20 ayollar terma jamoasi 3 uchrashuvda 7 ochko jamg'arib, «CAFA U-20 Women's Championship 2026» musobaqasi g'olibi bo'ldi.



SOHILDAGI BELLASHUVLAR



Markaziy Osiyoning eng nufuzli sohil voleyboli musobaqalaridan biri — «CAVA BEACH Volleyball Championship Uzbekistan 2026» o'z nihoyasiga yetdi.

Unda qizlarimiz barcha musobaqalarni munosib tarzda o'tkazib, faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritdilar.

G'ALABA VA MATONAT MAYDONI

Sirdaryo viloyatining Guliston shahrida aralash jang san'atlari bo'yicha «Amir Temur Fighting Championship 32» xalqaro turniri yuqori saviyada o'tkazildi.

Mazkur musobaqada O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Ozarbayjondan tashrif buyurgan 36 nafar sportchi o'zaro kuch sinashdi.

Turnirda Ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan to'rt nafar sportchi ham munosib ishtirok etib, barcha bellashuvlarda ishonchli g'alabaga erishdi.




Bunday xalqaro turnirlar mam-lakatimizda sportni ommalashtirish, yoshlarni sog'lom turmush tarziga jalb etish, shuningdek, xalqaro sport aloqalarini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Madina QAHHOROVA,
katta leytenant.



RAMAZON KUCHLI O'NLIKDA



BAAning Abu-Dabi shahrida o'tkazilgan «UFC Fight Night 282» turnirida hamyurtimiz Ramazon Temirov o'ta yengil vazn toifasida avstraliyalik Stiv Ersegga qarshi jang qilib, raqibini birinchi raunddayoq nokautga uchratdi. Shu tariqa, 29 yoshli Te-

mirov o'zining 22-jangida 20-g'alabasini qo'lga kiritdi. Mazkur bahs turnirning «Eng yaxshi chiqish» sovriniga ham ega chiqdi.

Ushbu g'alabadan so'ng R. Temirov UFC reytinggida 7-o'ringa ko'tarildi.

				Метро бекати	...	Зунунова	Кават				
				Кўрол-маслик			Мактуб				
						Сир					
ЭХМ соҳаси				Лампа чироқ	Бино				Харбий флот унвони		
						Депутат қоғози					
Тил бўлими				Кир ювиш воситаси		Клиник ўлим		Томон	Укубат		
				Харбий блок		Зеб		Шаҳар (Туркм.)			
Хақиқат				Илм ўрганувчи		«Умр чизиқлари»	Озгин	Кимёвий унсур	Тропик мева	Денгиз (Ўзб.)	Чолгу асбоби
				Обид ***							
				Мукофот		Нон тури					
Мозий, ўтмиш					Интернет саҳифаси	Баланд қалъа					
				Ўғил бола исми					Михаил...		
Ой номи								Тоғ ўсим.			
Алоқа									Бадавлат		
				12 ой				Ўлим	Обдаста	Сас	
1				Давлат (Араб.)							
Маҳалла											
Мьянма (эски номи)				«...Брэдли театри»	Тоғ тизмаси		Қариндош	«Майсаринг иши» (перс.)	Нусха	Ил	
						Илдиз	Нота		Шаҳар (Росс.)		
Геометрик атама							Ота	Ёвуз рицарь (фильм)	Она (шевада)		
					Темир хотин	Гаранг	Таълим, фан				
Куш тури				Нишон	Сайёра	Фазога учад		Дурадгор асбоби			
Буржлардан бири				Дарё		Лаҳза	Қовурилган жўжа	Рақс кечаси	Чирой		
						Толстой					
1							Ер текислаш мосламаси		Хусусият		
						«Фенербахче» футболчиси Натан ...					
							Рўзгор буюми				

Odatda «poytaxt» deganda biror bir davlatning aniq bir markaziy shahrini, saroylar va binolarni tushunamiz. Lekin Shayboniylar davridagi «boshqaruv markazi» tushunchasi biroz boshqacha bo'lgan. U bir joyda turmagan, balki xon qayerda bo'lsa, o'sha yer «markaz» hisoblangan. Bu mo'g'ullardan qolgan



an'ana bo'lib, xonning qarorgohi, yashash joyi va ma'muriyati ko'chma shaklda faoliyat yuritgan.

Savol: xon istiqomat qiladigan, ko'chmanchi an'analarga xos bo'lgan davlat bosh qarorgohi (poytaxt) qanday atalgan?

(Jumboqning javobini @PostdaUz_botga yuborishingiz mumkin.)

JANNAT QIDIRIB...

Erkin A'ZAM

(*"Ertalabki xayollar"* kitobidan)

To'rt-besh yil bo'ldi – xorijsa uzoq muddatli xizmat safarida yurgan do'stim hovli sotib olish niyatida ekanini aytib, surishtirib ko'rishni iltimos qildi. Gazetadagi e'lon bo'yicha telefonda bir odam bilan «savdolashdim». Hovlining narxini eshitib kapalagim uchib ketdi. Egasi shunga yondosh ichkari hovlisini ta'riflab (bassey, sauna, milliardxona, qishki bog'), uni ham qo'shib sotishini aytdi. Bunisining bahosi oldingisidan beshbattar edi. «O'zim Amerikaga ko'chib ketyapman, – dedi u. – Inson dunyoga bir marta keladi, yashagandan keyin odamga o'xshab yashash kerak-da». «Har yerda bordir tosh-u tarozu» naqlini eslatib, Amerikada hovli-joy qilish oson emasdir-ov, degan mazmunda so'z boshlagan

edim, «Bilaman, uch marta borib keldim. Uy-joyim tayyor, villa sotib olganman, – dedi suhbatdoshim. Keyingi izohi esa meni batamom lol qoldirdi: – Ko'rib turibsiz, og'ayni, O'zbekistonda tirikchilik qiyinlashib ketdi. Eshitgandirsiz, kecha non yana qimmatlagan emish...»

Mayli, birodar, o'zingizcha jannatni ko'zlab turgan ekansiz, nima derdik – oq yo'l! Ammo, mutlaqo maxfiy sir bo'lsa-da, hijrat oldidan birgina savolga javob berib ketsangiz: shuncha mol-mulk, shuncha sarmoyani qayerdan, qay yo'sinda topdingiz? Amerikadan orqalab kelmagandirsiz, hoynahoy? Yo cho'l-u biyobonda bir o'zingiz

dastgoh o'rnatib, dollar ishlab chiqarmagandirsiz? Mana shu «noni qimmat» yurt, shu yurtdagi vatandoshlaringiz tufayli orttirilmaganmi o'sha sarvat?! Qora qozonini qaynatish ilinjida erta-yu kech ter to'kib yurganlar qancha, bilasizmi? Ular nima qilsin?..

Urganchni yog'iy bosganda, «Shayx oyoq ostida qolmasunlar, o'g'lon va ushoqlari bilan qal'adan chiqib ketsunlar, degan taklif bo'ldi. Hazrati Shayx aytib yubordilarkim, yaxshilikda men bu xalqning tamomi birlan oshno va do'st-yor erdim, emdi yomon kunda nechuk bularni tashlab borayin...» Najmiddin Kubro jon saqlash imkoniyatini rad etibgina qolmay, dushman-

ga qarshi yuzma-yuz jangga kirishib, vatan ozodligi yo'lida halok bo'lgani ma'lum.

Yaxshi yashashni, farovon turmushga intilishni taqiqlab bo'lmaydi, albatta. Chet ellarga chiqib mablag' orttirib kelish (qaytib kelish!) ham olqishga loyiq tashabbus. Qolaversa, erkin dunyoning qonunlariga ko'ra, qaysi yurt, qay min-taqada umr kechirmoq – har kimning shaxsiy ishi. Lekin qayerda, qay manzilda dunyoga kelmoq, qay go'shada kindik qoni to'kilmog'i – bu endi bandasining shaxsiy ishi emas, bu – taqdiri azal, qismat. Ana shu qismat ro'y bergan makonni esa v a t a n deydilar. Vatan –

muqaddas, uni sevmok, unga sadoqat imondandir.

Aksincha – uni qadrlamaslikni, sinov kunlarida uni tashlab, xayoliy jannat qidirib yurganlarni nima deb atamoq kerak? Ertaga bir kun Vatan qaddini rostlaganida ular yana qozonning boshida paydo bo'lib qolmasmikan? O'shanda nima vaj qilisharkan? «Inson dunyoga bir marta keladi, yashagandan keyin tug'ilib o'sgan yurtda yashash kerak-da...»

Bizga o'xshagan nodonlarni ko'ring, odamzod dunyoga ikki marotaba keladi, deb o'ylar ekanimiz chog'i...

Vatanning nechta, vatan-dosh?..

UYAT BO'LADI

Ustoz Abdulla Qahhorning "Uyat" degan maqolasi bor. Unda mazkur tushunchaga axloqiy jihatdan yondashilib, bu – insonni hayvondan ajratib turuvchi tuyg'udir, degan yo'sinda tavsif berilgan.

Men maqolaning mazmunini dastlab televizor orqali adibning o'z og'zidan eshitgan edim. O'shanda ne-ne dolzarb ijtimoiy-madaniy muammolar qolib, ustozimizning anchayin bir axloqiy mavzuda, qolaversa, bolalik-yoshlik chog'larimizda har qadamda eshitadiganimiz tanbehnamo bir so'zga ("Uyat bo'ladi!") bu qadar urg'u berib so'z yuritgani menga erish tuyulgani rost.

Keyinchalik esa, xususan, so'nggi yillarda uyat hissi faqatgina axloqiy tushuncha emasligiga bot-bot

Birovning haqini paqqos uramiz-u, ko'zimizni lo'q qilib turaveramiz. Bor, qo'lingdan kelganini qill!

Har tadbirni qo'llab, o'zganing tagiga suv quyamiz-u o'rnini egallaymiz. Insof-andisha – "eskilik sarqiti"!

Farzandlarimizning onasini har turli bozorlarga yo'llab, mushtiparning topib kelganiga "inomarka" olib minamiz. Nomuslarga o'lmoq qani?!

Mol-dunyomiz o'g'rilik, haromxo'rlik orqasida orttirilganini hamma biladi, o'zimiz ham bilamiz. Loqaqal, yerga qaramoq, qizarmoq xayolimizga kelsa-chil!

Kirdikorlarimiz olamga ovoza, biz esa adlu insofdan lof uramiz. Oxiratda ham bir iloji topilar...

Uyalmaymiz, uyalmaymiz...

Nomus-u vijdon, harom-u haloldan so'z ochgan "eskicharoq" odamga bo-



amin bo'lmoqdaman. Nazarimda, bu so'zning mohiyati xiralashib, umuman, shu tuyg'uning o'zi susayib, gohida ahamiyati tamoman yo'qolib ham ketayotgandek tuyuladi. Bo'lmasa, kechagina ayb sanalgan uncha-muncha qilmishlarga bugun fazilat deb qaralmasa-da, harqalay, odatdagi bir hol sifatida beparvo munosabat qilinayotganiga nima deysiz!

Va'da beramiz-u, ustidan chiqmaymiz. Xijolat chekish yo'q.

Bandasining ko'ziga tik qarab yolg'on gapiramiz. Tap tortish qayoqdal!

zorni, bozor iqtisodiyotini ro'kach qilamiz. Bozor... bizdan oldin ham bor edi, bizdan keyin ham bo'lar. Dunyo – bozor o'zi. Lekin u hargiz sharmandalig-u yuzsizlikning niqobi bo'lganida, "uyat"dan boshlab lug'atdagi shu tur so'zlarning barchasini birma-bir o'chirib chiqmoqqa to'g'ri kelardi. Unda, ehtimol, lug'atning o'ziga ham ehtiyoj qolmas...

Ana o'shanda chinakamiga sharmandalik bo'lar... Xudo ana shunidan asrasin deng!

...Xijolatdan qizara bilgan banda naqadar g'olib!

SHUKR-U QANOAT

Sho'ro zamoni edi, bir ustozimiz dala hovli qurmoqda ekan, biz – shogirdlarini bir-ikki marta hasharga aytdi. Borib jilla bir joyni obod qilganimiz yo'q – domlanning eski qadrdoni bo'lmish boysunlik chapdast ustaga qo'l uchi qarashgan bo'ldik, xolos. Asli maqsadimiz ham shu bahonada domlamizga yaqinlashish, u kishining davrasidan bahramand bo'lish edi. Shunga erishdik hisobi.

Oradan ikki-uch oymi o'tib, ustoz yana hasharga chaqirdi. «Dacha bitgan edi-ku, domla, tag'in nima ishi qolgan ekan?» «Endi o'sha o'zlaring qurgan boloxona-sini buzish kerak...», dedi domla horg'in kulimsirab. Sababini so'ramoqqa hojat yo'q edi: bir-ikki kun burun markaziy gazetada felyetonnamo maqola chiqqan, unda hashamatli uy-joy qurgan ziyolilar qatorida kommunist domlamizning ham nomi tilga olingan edi. Demak, ana shu «hasham»ni kamaytirmoq lozim.

Imorat aslida mo'jaz bir xona-yu bir dahlizdan iborat bo'lib, boysunlik ustaning qo'li qichibmi, ustiga choqqina bir rovon ham qo'shilgan edi. (O'sha yillari Kavkaz kurortlarida dam olganlar ko'rgan: domlamizning «qasr»ini u yerdagi imoratlar qarshisida, uzr, tovuqxona ham deb bo'lmasdi. Yoki kavkazliklar yoppasiga partiyasizmidi?..)

O'zimizning qo'limiz tekkan binoni buzmoqqa ko'nglimiz bo'lmadimi, hasharga bormadik. Ustozimiz ham negadir bizdan ranjimadi.

Zamon yangi bo'ldi. Endi, qo'lingizdan kelsa – saroy quring, samolyot sotib oling,


birov bir nima deyolmaydi. Erkinlik. Lekin, ajabki, fursat topildi deguncha iqtisodiy qiyinchiliklardan, turmush norasolliklaridan noliymiz, shikoyat qilamiz-u, bugungi hoyu havaslarimizning chek-chegarasi yo'q. Endi, har qancha dabdabali bo'lmasin, bitta hovli-joy bizga tor, bitta mashina kamlik qilyapti. Qaniydi, shulardan qo'sha-qo'sha bo'lsa-yu ko'rgan do'st-u dushman hasaddan kuyib o'lsa!

Ho-yu havaslarimiz hakalak otib ko'paygani bor gap. Xo'sh, nima kamaydi? Bunga ham misol yetarli: insof, halollik... Yo'q, eng avvalo – shukr-u qanoat yo'qolib boryapti, shu hisni boy berdik. Qanoatni bilmagan insonda halovat bo'lmaydi. Mol-dunyo vasvasasiga berilib, aksariyat o'tayotgan umri, hayot, hayotning asl ma'nosini haqida o'y surmoqqa, mulohaza qilmoqqa fursat topolmaydi. Va taassufki, goho bunga ulgurmay ham o'tadi...

Bugungi dabdaba-yu a'sasalarni ko'rganda ustozimizning o'sha kamtarin kulbasi, boloxona mojarolari esimga tushadi. Zamon o'zgardimi, bizmi? Ha balli, zamonga qarab biz ham o'zgaridik. Ammo yaxshilik, halollik tarafdami? Unda shukr-u qanoat deganlari qayda qoldi?

Keling, hadeb jaydari savolni qalashtiravermay, qadim bir hikmatni ham yodga olaylik: jahongir Iskandar bu dunyodan nega qo'li ochiq ketibdi?

Siz-u bizning ilinjimiz nimadan, zamondosh?



Faxriylar ijodidan



Ibrohim Yusupov – ichki ishlar organlari faxriysi, shoir, nosir, publitsist, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi. U 1958-yilda Xorazm viloyati Gurlan tumanida tavallud topgan. Uzoq yillar huquq-tartibotni va fuqarolar osoyishtaligini ta'minlash yo'lida sidqidildan xizmat qilgan. Ibrohim Yusupov mas'uliyatli faoliyatini ijod bilan uyg'unlashtira oldi. Uning «Osmon to'lsin qushlarga», «Bir dunyo sevinch», «Yaxshi niyat», «Yurtim haqida qo'shiq» nomli she'riy to'plamlari, «Mard-u maydon o'g'lonlar» va «Bo'ri yotog'idagi qotillik» nomli nasriy asarlarida Vatanga muhabbat, inson qadri, burch va sadoqat, mardlik hamda ezgulik g'oyalari yetakchi o'rin tutadi. Xizmat faoliyatidagi boy hayotiy tajribasi asarlariga hayotiylik, samimiyat va chuqur mazmun bag'ishlagan. Quyida uning she'rlaridan ayrim namunalarni e'tiboringizga havola etyapmiz.

O'ZBEKISTONIM

Sharqda mash'al bo'lib yashnagan o'lka,
Istiqlol muborak, hur O'zbekiston!
Barcha qardoshlarga qalbingni ochding,
Noming bo'lgan endi tillarda doston,
Tong kabi musaffo, bag'ri bo'stonim,
Ey, mening Vatanim – O'zbekistonim!

Gulgun chechaklarga to'lsin har doim,
Mehribonim-onam, issiq quchog'ing.
Jahon osmonida quyoshdek balqib,
Mag'rur hilpirasin shonli bayrog'ing,
Tong kabi musaffo, bag'ri bo'stonim,
Ey, mening Vatanim – O'zbekistonim!

Ming xil ofatlardan qololgan omon,
Mardona yo'l olgan kelajak tomon,
Halol mehnat bilan rizqini topgan,
Har tarafi fayzli, obod, charog'on.
Tong kabi musaffo, bag'ri bo'stonim,
Ey, mening Vatanim – O'zbekistonim!

Paxta xirmonlarning tog'dek bo'y cho'zar,
Zilol suvlaringga liq to'la anhor,
Dalalarda unar g'allang-bug'doying,
Bag'ringda abadiy yashnaydi bahor.
Tong kabi musaffo, bag'ri bo'stonim,
Ey, mening Vatanim – O'zbekistonim!

Jangu jadallarda g'olib qahramon,
Do'stlikka tinchlikka hamisha posbon,
O'z maqsadi aniq, kelgusi porloq,
Hurlikning yo'lida mudom charog'bon,
Tong kabi musaffo, bag'ri bo'stonim,
Ey, mening Vatanim O'zbekistonim!

ICHKI ISHLAR XODIMLARI BOR BO'LSIN

Muqaddas yurtimiz tinchligini ko'zlab,
Charchashni, tolishni aslo bilmaydi.
Farzandlik burchini dildan ardoqlab,
Hech bir yovni aslo pisand qilmaydi.
Ichki ishlar xodimlari bor bo'lsin,
Bosgan qadamlari nurlarga to'lsin!

Osonmas dunyoda mardona yurib,
Adolat bayrog'in ko'tarmoq tikka,
Eng og'ir damlarda muzaffar turib,
Turli sinovlarga tutolgan yelka.
Ichki ishlar xodimlari bor bo'lsin,
Bosgan qadamlari nurlarga to'lsin!

To hayot bor ekan, serg'alva girdob,
Soyadek ergashar yovuzlik har on.
Shu sabab hamisha aqlimiz charxlab,
Ehtiyot chorasi zarur har qachon.
Ichki ishlar xodimlari bor bo'lsin,
Bosgan qadamlari nurlarga to'lsin!

Men bugun sizlarni samimiy qutlab,
Mehr-la bag'ringa bosgim keladi,
Ezgu niyatlarni yurakdan so'zlab,
Qalbmida sevinchlar uchib yeladi.
Ichki ishlar xodimlari bor bo'lsin,
Bosgan qadamlari nurlarga to'lsin!

Ibrohim YUSUPOV

Gazetangizni o'qidim

MEHR – QALB O'ZAGI

Men «Postda-Ha nocty-At the post» gazetasining 10-iyul sonida chop etilgan «Mehr – qalb bezagi» sarlavhali maqolani o'qib juda ta'sirlandim va hayratlandim. Ochig'i, avvaliga bunga ishongim kelmadi. Nahotki ichki ishlar xodimi, tag'in ayol kishi shu ishni qilgan bo'lsa, deb o'yladim. Oxiri o'ylay-o'ylay bu haqda sizlarga yozishga qaror qildim.

Maqola Surxondaryo viloyati IIB Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi tarbiyachisi katta serjant Sarvinoz Safarovaning xizmat faoliyati haqida yozilgan ekan. Meni uning xizmat burchini namunali bajarish bilan birga markazda tarbiyalanayotgan uch nafar qizaloqni o'z tarbiyasiga olgani hayratga soldi.

Bu xodima taqdir sinovlariga duch kelgan uch nafar qizni o'z qaramog'iga olibdi. Qarang, ulardan birining ota-onasi hayotdan bevaqt ko'z yumgan, ikkisining esa onasi jazo muddatini o'tayotgani sababli chin mehr va etiborga muhtoj qizaloqlar ekan.

Qanday savob ish. Bu ezgu va xayrli ishni qo'llab-quvvatlagan


turmush o'rtog'i (u ham ichki ishlar organi xodimi ekan) qaynona va qaynotasiga ham qoyil qoldim.

Menga qolsa, sarlavhani «Mehr – qalb bezagi» deb emas, balki «Mehr – qalb o'zagi» deb nomlagan bo'lardim. Chunki mehr qachon qalblarni bezaydi, qachonki mehr beruvchi kishi qalbingni o'zaga mehr bo'lsa. Sarvinozning qalbi mehrga to'la ekan. Ayniqsa, mehr qancha – sotib olaman, degan qo'shiqlar yangrab turgan bu zamonda yosh go'daklarga mehr berayotgan bu ichki ishlar xodimlariga tasanno. Ularning oilasiga o'z minnatdorligimni bildiraman. Safingizda bunday xodimlar yanada ko'payishini tilayman.

Normurod MUSOMOV,
jurnalist.



Sog'inchlar diydorga aylangan kun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

podpolkovnik
Xurshidbek RO'ZIYEV

Bosh muharrir
o'rinbosarlari

podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir

Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar

Abror POYONOV
Yuliya MUSTAFAYEVA

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari
bo'yicha:

71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



9 772010 535001

Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 2238.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
48624 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.

Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1A-uy.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi. Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.